

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS**

**TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**PEDAGOGIKA FAKULTETI**

**MAKTABGACHA VA BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI**

**KAFEDRASI**

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Pedagogira fakulteti dekani

\_\_\_\_\_ p.f.n.,dots. Nurullaeva Sh.O'

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018 y.

**5111800-Maktabgacha ta'lim ixtisosligi talabasi**

**TUROPOVA MA'MURANING**

***“MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR DUNYOQARASHINI  
SHAKLLANTIRISHDA “BOLAJON” TELEKANALINING O'RNI VA  
AHAMIYATI”***

**mavzusidagi bakalavr darajasini olish uchun yozgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Imiy rahbar: dots.N.Oripova**

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi”

kafedrasi mudiri, p.f.d. R.D.Shodiyev

“ \_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 2018

QARSHI – 2018

## MUNDARIJA:

<b>Kirish .....</b>	<b>3</b>
<b>I BOB. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....</b>	
1.1. Bolalar dunyoqarashini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	
1.2. Televideniye va uning vazifasi.....	
1.3. “Bolajon” telekanalining dasturlari tahlili.....	
<b>II BOB. TELEVIDENIYE VOSITASIDA BOLALARLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI .....</b>	
2.1. “Bolajon” telekanali- bolalarlar dunyoqarashini shakllantirish vositasi..	
2.2. Tajriba-sinov ishlari tahlili .....	
<b>Xulosalar.....</b>	
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati .....</b>	
<b>Ilovalar.....</b>	

## K i r i s h

**Mavzuning dolzarbligi.** XXI asr kishilik jamiyati tarixiga axborotlar asri sifatida kirib keldi. O‘z navbatida yosh avlodning dunyoqarashi, fikrlashi ham axborotlar asriga moslashib, ko‘nikib va undan orqada qolmagan tarzda yuksalib bormoqda. Aslida har qanday axborotning ijodkori insoning o‘zi, uning ongi, dunyoqarashi, qiziqishlari hamda e‘tiyojlarining namoyon bo‘lishidir. Yurtimizda axborotlar ko‘lamining kengayishi, fan-texnika, texnologiyaning rivojlanib borishi bevosita mustaqil davlat sifatida shakllanishi bilan bog‘liqdir. Bu ishlar O‘zbekiston tarixiga uning birinchi prezidenti I.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan keng ko‘lamli chora tadbirlar, qator farmon, farmoyishlar, konsepsiyalar va ularning amaldagi tadbiri - islohotlar tarzida kirib keldi. Siyosiy va iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar, o‘zgarishlar yangi-yangi texnologiyalarni barcha sohalarda muvaffaqiyatli tarzda qo‘llash imkoniyatlari, zaruriyatlarini keltirib chiqardi. Shu bois axborot texnologiyalaridan foydalanish va uni qo‘llash faqat ezgu ishlarda foydalanishga hukumat miqyosida katta ahamiyat berila boshlandi. Negaki mamlakatimiz aholisining dunyoqarashi va dunyoqarashini yuksaltiruvchi bugungi kunning eng muhim va keng qamrovli vositasi bu – ommaviy axborot vositalaridir. **Malakatimiz Prezidenti I.Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi” deb nomlangan ma’ruzasida bu muammo ustida to‘xtalib, shunday degan edi: “Ma’lumki, fuqorolarning axborot sohasidagi huquq va erkinliklarini ta’minlash masalasi insonning axborot olishi, axborotni va o‘z shaxsiy fikrini tarqatish huquqi va erkinligini o‘zida mujassam etgan bo‘lib, bu O‘zbekistonda demokratik jamiyat asoslarini barpo etishning muhim sharti, ta’bir joiz bo‘lsa, tamal toshi hisoblanadi”<sup>1</sup>.**

Bizga ma’lumki, ommaviy axborot vositalaridan televideniye shaxs dunyoqarashini shakllantirishda yetakchilik rolini o‘ynaydi. U orqali kishilarning

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo‘shma majlisidagi «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi».

siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy va ijtimoiy ongi yuksaladi, dunyo yangiliklaridan, fan va texnika yutuqlari, milliy qadriyatlarimizdan xabardor bo'lib boradi. O'z navbatida televideniye mamlakatimiz kelajagi bo'lmish yosh avlod dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim omil hisoblanadi. 2012-yildan "Bolajon" telekanalining faoliyat yuritib kelayotgani bu sohadagi eng katta yutuqlardan biri bo'ldi. Ushbu telekanal yosh avlod tarbiyasiga alohida ahamiyat berib kelmoqda. Bolalarning aqliy, axloqiy, estetik, ekologik, jismoniy, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi tarbiyasini shakllantirish borasida yangidan-yangi teledasturlar yaratib, bolalare'tiboriga namoyish etib kelmoqda.

Eng muhimi yangidan tashkil etilgan bolalarteledasturlari o'zida milliylik va zamonaviylikni o'yg'unlashtirgan, bolalare'tiborini jalb etishga qaratilgan rang-baranglikka egadir. Unda nafaqat o'zbek xalqining milliy qadriyatlari, balki boshqa millat vakillarining qadriyatlari ham aks etib boriladi. Ayniqsa, multi ko'rinishdagi dasturlarni bolalarzo'r qiziqish bilan tomosha qiladilar.

O'zbek tilining izohli lug'atida televideniye haqida shunday deyiladi: "Harakatdagi yoki harakatsiz oyektlarning tasvirini tovush bilan birga radioelektron vositalar yordamida muayyan masofaga uzatish va qabul qilish; uzoqdan ko'rish; axborot vositalaridan biri."<sup>2</sup>

Demak, televideniyeining ushbu ta'rifiga ko'ra u muhim axborot vositalaridan biridir. Axborot oqimi shiddat bilan tarqalayotgan hozirgi davrda insonlararo muloqotning turi sifatida televideniyeining o'rni beqiyosdir. Zero, faqat televideniye orqaligina qisqa muddatda har qanday ma'lumot, yangilik, voqea-hodisalar haqida xabardor bo'lish imkoniyati mavjud.

Barchamizga ma'lumki, ommaviy axborot vositalari turlarining ko'payishi va ularning inson hayotiga kirib kelishi natijasida, bolalarning ham televideniyeiga, ayniqsa, bolalardasturlariga qiziqishlari yuqori ekanligini aniqladik. Ayni kunlarda bolalartevarak-atrofdagi voqea, hodisalar mohiyatini tushunish, anglashda televideniyeiga ma'lumotlariga murojaat qilmoqdalar. Ushbu mulohazalar tadqiqotimiz mavzusini **"Maktabgacha yoshidagi bolalardunyoqarashini**

---

<sup>2</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2008. -57b.

**shakllantirishda “Bolajon” telekanalining o‘rni va ahamiyati”** deb tanlashimizga asos bo‘ldi.

**Tadqiqotning maqsadi:** “Bolajon” teledasturi faoliyatini tahlil qilish va o‘rganish hamda uning maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishdagi ahamiyati va o‘rnini ichib berishdan iborat.

**Tadqiqot obyekti:** “Bolajon” teledasturi orqali maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** televideniye orqali maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishning mazmuni, yo‘llari.

**Tadqiqot farazi:** -Agar:

- maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashiga ta’sir etuvchi omillar, xususan, televideniye faoliyati o‘rganilsa va tahlil qilinsa;

- televideniye ma’lumotlaridan ta’lim-tarbiya jarayonida izchil va muntazam foydalanilsa;

- ta’lim-tarbiya jarayonida bolalarlarni axborotlar tahdididan himoyalash chora-tadbirlari ishlab chiqilsa;

- bolalar teledasturlari ota-onalar va farzandlar o‘rtasida tahlil qilib borilsa;

- bolalarning kundalik faoliyati to‘g‘ri tashkil etilib, bunda ota-onalar va o‘qituvchilar nazorati kuchaytirilsa kutilgan samaradorlikka erishish mumkin.

**Tadqiqot vazifalari esa quyidagilarda namoyon bo‘ladi:**

1. Shaxs dunyoqarashini shakllanitrishga oid pedagogik fikrlarni o‘rganish va tahlil qilish.

2. Teledasturlarning turlari va ularning faoliyatini o‘rganish.

3.Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda televideniye dan foydalanishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning metodologik asosi:** O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari va farmonlari, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”; Markaziy Osiyo qomusiy allomalarining komil inson tarbiyasiga doir fikrlari va me'yoriy hujjatlar tashkil etadi.

**Tadqiqot metodi.** Tadqiqot davomida kuzatish, qiyosiy tahlil, suhbat, anketa kabi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

**Himoyaga olib chiqilayotgan holatlar:**

- Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishning nazariy asoslari;
- Bolalar ko'rsatuvlari tahlili;
- Bolalar dunyoqarashini shakllantirish jarayonida televideniye ahamiyatining tahlili;

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

1. O'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish muammosi o'rganildi, uning manbalar tahlil qilindi.
2. Bolalarning televideniye munosabati o'rganildi.
3. Bolalar dunyoqarashini shakllantirishda televideniye dan samarali foydalanish chora tadbirlari ishlab chiqildi.
4. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar berildi.

**Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati:** Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani maktabgacha yoshidagi bolalar dunyoqarashini shakllantirishda televideniye dan foydalanishning ahamiyati to'g'risidagi nazariy yondoshuvlar, qarashlar bilan boyitildi. Tadqiqotda keltirilgan g'oyalardan Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari, tarbiyachi-pedagoglar, ota-onalar foydalanishlari mumkin.

# I BOB. MAKTABGACHA YOSHIDAGI BOLALAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1. Maktabgacha yoshidagi bolalar dunyoqarashini shakllantirish pedagogik muammo sifatida

Ma'naviyatning tarkibiy qismi bo'lgan dunyoqarashni shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Zotan, sog'lom dunyoqarashga ega yoshlar har qanday g'oyalar, fikrlarga qarshi tura oladi.

Xo'sh dunyoqarash o'zi nima? dastlab ana shu savolga javob topmog'imiz darkor. "Dunyoqarash" tushunchasi falsafa fanining eng muhim kategoriyalaridan biri hisoblanib, uning asosini tashkil qiladi.

Dunyoqarash – bu, avvalo, inson o'zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi va baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir.<sup>3</sup>

Unga ko'ra inson olam va odam haqida bir butun qarashlar, g'oyalar tizimini yaratadi. Eng muhimi insonning olamga munosabati, dunyodagi o'rnini, mohiyati, hayotiy yo'nalishi, o'zligini anglash kabi savollarga javob beradi. Zeroki, falsafaning asosi ham sog'lom aql tafakkuri va uning rivojiga mos keladigan dunyoqarashni yaratishdir. Buning uchun inson, eng avvalo, mukammal bilimga ega bo'lishi lozim.

Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o'rniga, kishilarning o'z atrofidagi voqelikka va o'z-o'ziga munosabatiga bo'lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e'tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari.

Dunyoqarash – shaxsning shaxsligini, ma'naviyatini, ijtimoiylashuvi doirasini ko'rsatuvchi kuchli motivlardandir.

---

<sup>3</sup> Yusupov E. Falsafa. T: Sharq, 1999. -8 b.

Dunyoqarash – tartibga solingan, yaxlit ongli tizimga aylantirilgan bilim, tasavvurlar va g‘oyalar majmui bo‘lib, u shaxsni ma’lum qolipdan o‘z shaxsiy qiyofasiga ega tarzda tabiatda munosib o‘rin egallashga chorlaydi».

Dunyoqarash – odamning tabiat va ijtimoiy hayot hodisalari haqidagi qarashlari, tasavvurlari va tushunchalari sistemasidir.

Dunyoqarash – tabiat va jamiyatga, ularning hodisalariga bo‘lgan ilmiy, mafkuraviy, ma’naviy, ilohiy qarashlar tizimi.

Demak, yuqorida qayd etilganidek, ongning mavjudligidan fikr va ularni ifodalovchi ma’lumotlar shakllanib, ong tafakkurning shakllanishida mustahkam asos bo‘lib hisoblanadi. Shu sababli ham kishi ongida, uning qalbidagi e’tiqodi asosida dunyoqarash shakllanadi, ya’ni dunyoqarash – odamning tevarak atrofdagi olamga va undagi o‘zining tutgan o‘rniga qarashlaridan kelib chiqqan tizim. Kishilarning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlar yig‘indisidir. Kishilarda dunyoqarashning quyidagi turlari namoyon bo‘ladi: falsafiy, diniy, ilmiy, aqliy, siyosiy, yestetik, huquqiy.

Dunyoqarash shakllanishining yana bir xususiyati shundan iboratki, xususiy ko‘rinishlardan umumiy ko‘rinishlarga, ya’ni individual xususiyatlardan ijtimoiy xususiyatlargacha rivojlanib, takomillashib boraveradi va shuning bilan birga u ijtimoiy munosabatlar bilan chambarchas bog‘liq. Dunyoqarash kishilarning yoshi, hayot tajribasi, intellektual salohiyati, mafkurasi va shu kabilar bilan bog‘liq ravishda rivojlanib takomillashib boradi.

Dunyoqarash insonning o‘zini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi hamda baholashi asosida shakllanadi. Bu borada hozirgi yoshlarimiz ongini o‘stirish va tafakkurini kengaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bular orqali ularni intellektual salohiyatli siyosiy ongli qilib tarbiyalash imkoniyati yaratiladi. Bu esa erkin va mustaqil fikrlaydigan, o‘zligini anglay oladigan, ya’ni har xil zararli oqimlarga qo‘shilib ketavermaydigan bo‘ljak mutaxassislarni tayyorlashda mustahkam asos bo‘la oladi.



Shaxsning dunyoqarashi, ayniqsa, ilmiy dunyoqarashning kengligi ularning asosiy tarkibiy qismlari: aql, ong, fikr, ilm, bilim, ilmiy bilim, ilmiy qarash, e'tiqod, ilmiy tafakkur va shu kabilarga bog'liq.

Dastlab individ dunyoni hissiy sezadi (dunyoni his qilish). Bunda individ voqelikni bevosita hissiy in'ikos etish natijasida anglaydi. Keyin voqelik haqida to'plangan bilimlar asosida individual dunyoqarash paydo bo'ladi. Bu dunyoni anglash deyiladi. Shaxsning dunyoni anglashi orqali uning o'zini anglashi ham shakllanib boraveradi. Shu tariqa dunyo haqidagi barcha bilimlar yuksak darajada umumlashtiriladi va yaxlit dunyoqarash hosil bo'ladi.

Demak, ayrim odamning aqli, ongi bilan bog'liq holda shakllangan dunyoqarash individual dunyoqarash bo'ladi va uning muayyan ijtimoiy jamoa (guruh, qatlam, sinf, millat, elat, xalq, va jamiyat miqyosi)dagi ijtimoiy ongi asosida shakllangan dunyoqarashni ijtimoiy dunyoqarash deyiladi. Bu jarayonda individual dunyoqarashning kengayib borishi ijtimoiy dunyoqarashni yuksaltirishga asos bo'ladi va ular doimo bir-biri bilan muntazam aloqadorlikda bo'ladi va bir-birini rivojlantiradi. Bu jarayon shaxs kamolati bosqichi ketma-ketligida yaqqol seziladi.

Demak, dunyoqarash insoniyatning tarixiy taraqqiyoti davomida rivojlanib borgan va ular taraqqiyot jarayoni davomida turli ko'rinishlarni olgan. Albatta ular ko'rinishlari o'zining mazmun-mohiyati jihatidan ham turli yo'nalishlarda bo'ladi. Shu sababli ham ulardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish, ularning mos ko'rinishlarini tanlash ham o'ziga xos ijodiy jarayondir. Buni samarali amalga oshirishni osonlashtirish maqsadida ular haqida qisqacha ma'lumotlar keltiramiz.

Xuddi shuningdek, bu qayd etilgan dunyoqarashlardan tashqari ilmiy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik va shu kabi dunyoqarashlar ham mavjud. Bulardan tashqari dunyoqarashning ko'lami (individning butun hayoti mobaynida rivojlanib, kengayib boruvchi jihatlari), mazmuni (individ ongida voqelikning xilma-xil jihatlari qay darajada qamrab olinganligini aks ettiradi) va markazi yoki tayanch tuqtasi (individning qanday shaxsiy hamda ijtimoiy manfaatlar majmuasi doirasidan turib olam haqida fikr yuritishi) kabi jihatlari ham bor.

Ma'lumki, inson o'z hayoti davomida o'zidan oldin o'tgan kishilarning turmush tajribasiga (tarziga), to'plangan bilim, ko'nikma va malakalariga, ya'ni qadriyatlariga tayanadi. Shu sababli ham dunyoqarash ayniqsa ilmiy dunyoqarash kishilarning axloq meyorlari, hayotni yaxshilash borasidagi ongli intilishlari, qiziqishlari mehnat faoliyatiga va turmush tarziga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ular hayotida katta amaliy ma'no (mazmun) kasb etadi.

Insoniyat paydo bo'libdiki, unda inson kamoloti jarayoni davom etib kelmoqda. Ma'lumki, kishi kamoloti, uning umrini yuksak intellektual salohiyatini boyitishga bog'liq bo'ladi va shu asosda buyuk maqsadlar sari intiladi, jamiyat hamda davlatga foydasi tegib yashaydi, natijada uning hayot mazmuni shakllanadi. Shaxs kamoloti ma'naviy yetuk, barkamol avlodni shakllantirish bilan uzviy bog'liq holda amalga oshiriladi va bunday jarayon u yashab turgan ijtimoiy muhit hamda unga mos tarbiya bilan belgilanadi. Bu esa shaxs, millat va jamiyatning mentalitetiga bog'liqdir.

Kelajak avlod tarbiyasi uning dunyoqarashini o'stirish bilan bog'liq ekan, bu borada albatta bolaning yosh va ruhiy holatini hisobga olish talab etadi. Shu boisdan ta'lim-tarbiya jarayonida bola dunyoqarashini o'stirishda bir qator pedagogik talablarga rioya qilish lozim bo'ladi:

1. Bola dunyoqarashini o'stirish va boyitish uchun dastlab oilada sog'lom muhit bo'lishi: uning o'ynashi, dam olishi, ovqatlanishi uchun yetarli shart-sharoitlar bo'lmog'i;
2. Muntazam ota-ona bolani psixolog va boshqa shifokorlar ko'rigidan o'tkazib borishi;
3. Bola nutqini o'stirishga alohida e'tibor qaratishi, rangli va tasvirli kitoblar sovg'a qilishi;
4. Ota-onalar farzandlari bilan uning dunyoqarashini o'stirishga mo'ljallangan o'yinlar uynashi;
5. Bolaning tiniqib uxlatishi uchun sharoit yaratishi va boshqalar.

Televideniye ommaviy axborot vositalarining eng ko'p va keng tarqalgan turlaridan biridir. Bugungi kunda televizor ko'rmaydigan insonni uchratish bizningcha juda mushkul bo'lsa kerak. U allaqachon hayotimizdan munosib o'rinni egallab bo'lgan. Biz har kuni bir necha marta uning qarshisida o'tirib axborotlarni qabul qilamiz, ko'ngilochar ko'rsatuvlarni tomosha qilib dam olamiz, go'zallikdan bahramand bo'lamiz, dunyo voqealaridan xabardor bo'lib, o'z munosabatimizni bildiramiz. Xo'sh, televideniye inson dunyoqarashiga qanday ta'sir ko'rsatadi? Bolartelevizor ko'rishlari kerakmi yoki yo'qmi?

Bu savollarni o'rganish hozirga kunda qarama-qarshi fikrlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Ayrim guruh vakillari televideniye asrning fojeasi, deb qaraydilar. Uni insoniyat uchun "Axborot-ko'ngilochar giyohvandlik" deb hisoblaydilar. U insoniyatni o'ziga mahliyo qiladi, katta odamning tafakkur va xulq-atvorini, idrokini stereotiplashtirib oladi, odamlarni fantaziyadan ijodiy tashabbusdan, mustaqil yo'nalishdan mahrum etadi. Televideniye oilada, do'stlar bilan bo'ladigan shaxslararo munosabat imkoniyatini kamaytiradi, muloqotni rasmiy va yuzaki qilib qo'yadi.

Angliyalik olimlarning ayrimlari televideniye haqida shunday fikrlarni bildiradi: kishilar bir-birlari bilan kam munosabatga kirishsalar, ular jonsiz predmetlarni: radio, televideniye va matbuotni afzal ko'radilar. Statistik ma'lumotlardan ayon bo'lishicha, bo'sh vaqtning bo'lishiga qaramay, bolalar bilan ota-onalarning turli muloqot yo'sinlari sezilarli darajada kamaygan. Yanayam achinarlisi, bolalarva o'smirlarning kitob o'qishga qiziqishlari pasaygan, ular oson yo'lga o'tib olishgan, ya'ni televideniye dan berilayotgan axborotlar bilangina qoniqish hosil qiladilar. Bu, albatta aqlni zo'riqtirib kitob o'qishdan ko'ra osonroqda.

Amerikalik tadqiqotchilar televideniye ning bolalar uchun xatarli tomonlarini ko'rsatib o'tishdi. Televideniye bolalarda muayyan olam haqidagi tasavvurlarning kamayishiga, o'qishi va o'yin faoliyatlarida jiddiy ta'sir qiladi. Ulardagi fantaziya, ijtimoiylashuv, nutqning rivojlanishi, muloqotlarning shakllanishi ana shu

faoliyatlarda ro'y beradi. Bolalarqanchalik teleko'rsatuvlarni ko'p ko'rsa, ularda shunchalik diqqat ko'lamining kamligi va uning turg'unligini yetishmasligiga olib keladi. Bu fikrlar televideniyeining salbiy ta'sir qiladigan tomonlari haqidadir.

Berilayotgan xabar qachon tezkor, haqiqiy, qiziqarli, munozarali, ilmiy bo'lsa, hayotni yaqqol oynadek ko'rsatsa, muloqotda yaxshi hamkor, qadrli do'st va maslahatchi, kishilarni zamonaviy fan va san'atga bo'lgan qiziqishlarni oshirsa, unda ommaviy axborot vositalari so'zsiz ravishda insoniyat ma'naviy olamini to'ldirishga dastlabki zamin bo'ladi. "Har qanday televideniye ma'lumot olish manbai. Lekin savol shundaki, u nimaga o'rgatadi" deb ta'kidlaydi Nikolas Jonson. Yoshlarning dunyoqarashi, o'y-fikrlari, tafakkuridagi rivojlanish mexanizmlarini o'rganish hozirgi kunda muhimdir. Ulardagi mafkuraviy dunyoqarashni shakllantirishda ommaviy axborot vositalari, xususan, televideniye yoshlar ongiga ta'sir etayotgan materiallarni qanday yoritayotganligini ilmiy-nazariy jihatlarini empirik tadqiqot materiallari bilan asoslash va tahlil qilish zarurdir.

Televideniyeining ahamiyati shundaki, millionlab odamlar bir-birlarini ko'rmagan holda bir-birlarini uchratmagan holda qandaydir bir vaqtning o'zida kulishadi, bir vaqtning o'zida xafa bo'lishadi va bir vaqtning o'zida fikrlashadi. Televediniye bizning didlarimizni, ehtiyojlarimizni, dunyoqarashimizni muayanlashtiradi. Bolalarlarning ma'lumot olish manbai bo'lgan televideniye ko'rsatuvlarni ta'lim-tarbiyaning samaradorligini oshirish borasidagi jihatlariga yanada jiddiyroq ahamiyat berish kerak. Shuningdek, O'zbekiston televediniyesiga o'smirlar va talabalar hayotini yorituvchi, ular dunyoqarashini boyishiga asos bo'ladigan, bozor munosabatlari haqida, oilaga ruhan tayyorlov, muomila madaniyati xususida, do'stlik va tariximiz to'g'risida intellektual shou ko'rsatuvlar zarur. Shunday kursatuvlar yetarli bo'lsa, bizning dunyoqarashimiz, dunyoqarashimiz o'suviga televediniye o'z hisasini yanayam ko'proq qo'shgan bo'ladi.

XX asr mo'jizasi televideniyeining hayotimizda tutgan o'rnini beqiyos. Ommaviy axborot vositalari ichida gazeta, jurnal va boshqa axborot turlariga nisbatan juda katta mavqega ega. Unga to'rtinchi hokimiyat deb nisbat berilishi

ham bejiz emas. Televideniye va radio juda qisqa fursat ichida boshqa san'at turlariga qaraganda texnik imkoniyalari jihatidan ijodiy izlanishlar juda keng. Ommaviy tezkor va jonli san'at vositasi ekanligini namoyish etadi. Televideniye va radio hayot muammolar yechimini topishda, xalq dardini oshkor etishda, inson qalbi va tafakkurining kamol topishida yangidan yangi uslub ifoda etuvchi vositalarni o'zida kashf etadi. Ming yillardan beri o'z funksiyasini bajarib kelayotgan teatr san'atining imkoniyat darajasini yanada kengaytirgan kino san'atining televideniye va radio o'zida mujassamlashtirigan holda davom ettirdi. Insoniyat tafakkurining rivojida ijtimoiy hayotimizning taraqqiyoti darajasiga, turmush tarzimizga inqilob bo'lib kirdi. Televideniye haqida taniqli yozuvchi shunday degan edi: shom tushishi bilan belgilangan vaqtda shahar, qishloq va umuman odamlar yashaydigan joylarda qandaydir sirli kuch paydo bo'ladi. U beton devor, temir eshik, mahkam berkitilgan derazalarda xavf xatarsiz taqillatmasdan barcha xonadonlarga kirib boradi. Million-million odamlar bir-birini ko'ramasdan, bilmasdan turib bir vaqtning ichida baravariga kulishadi, dardlashadi.

Sotsiologik tadqiqotlarga ko'ra teleekran oldida o'rta hisobda bolalar 5-6 soat ichida o'z vaqtlarini o'tkazar ekanlar. Televideniye bolalarni uyga qamab o'zining kichik dunyosiga bog'lab qo'yadi.

Har bir yangilikning albatta, ijobiy va salbiy tomonlari bo'ladi. Televideniyaning ijobiy va salbiy tomonlarini farqlash qiyin. Bolalarhar qanday ma'lumotni qabul qiladilar.

Mustaqillik yillarida milliy o'zlikni anglashga, millatning madaniy o'ziga xosligini mustahkamlashga yo'naltirilgan barkamol avlodni tarbiyalashga doir ko'rsatuvlarni tayyorlab, efirga uzatish birinchi kanal faoliyatining asosiy belgisiga aylandi. Madaniy va barkamol avlod to'g'risidagi ko'rsatuvlar yordamida jamiyatda milliy qadriyatlar, yoshlar tarbiyasi, badiiy, moddiy va ma'naviy meros haqidagi umumiy tasavvurlar shakllantiriladi. Bir tomondan, ma'naviy merosni tiklash sohasidagi davlat ustuvorliklari, ikkinchi tomondan, tobora o'sib kelayotgan barkamol avlod tarbiyasi O'zbekiston televideniyesi uchun alohida

ahamiyat va o'ziga xoslik kasb etdi. O'zbekiston telekanalida bolalar uchun alohida "Bolajon" telekanali tashkil etilgan bo'lib, u bolalarning sevimli kanaliga aylanib ulgurdi. Bu telekanalda berilayotgan o'yinlar, shoular, multfilmlar bolalartarbiyasi uchun juda muhimdir.

Bugun televideniye ko'rsatuvlarni ko'rishdan maqsad har kuni axborotga, yangilikka bo'lgan ehtiyojdir. Bundan tashqari hordiq chiqarish uchun har bir inson haftada hech bo'lmaganda bitta ko'ngilochar dasturlarni tomosha qiladi.

Bolada esa bunday ehtiyojlar kattalarnikidan ko'ra ko'proq. Ya'ni o'yin-kulgu, yorqin suratlar, baland ovoz va boshqalar.

Axborot xurujlari vaziyatida shaxsning o'zini-o'zi himoya qilishini boshqarishda ayrim jihatlarga aloxida e'tibor berish lozim, deb hisoblaymiz. Bular:

- 1. Mustaqil fikrlash.*
- 2. Axborotlarni analiz va sintez qila olish.*
- 3. Vaqtni qadriga yetish.*
- 4. O'z-o'zini boshqara olish va boshqalar.*

Kichik maktab yoshidagi bolalarlar ta'lim jarayonida anchagina ilmiy tushunchalarni o'zlashtirib olishlarida oldingi davrda o'zlashtirgan turli alomatlar, belgilar, tushunchalarni qorishtirib, chatishtirib ham yuboradilar. Chunki ularda tushunchalar tarkibiga kiradigan narsa va hodisalar bilan ularning belgilari o'rtasida uzviy bog'lanish tarkib topmagan bo'ladi.

Bolalarlarning bilim doirasi kengaygani sayin ular qat'iy hukumlardan taxminiy xukmlarga ko'cha boshlaydilar. Ya'ni narsa va hodisalarning turli xususiyatlarga egaligi, voqelik atigi bir harakatdan, bir sababdan emas balki ko'p sabablardan paydo bo'lishini anglash kabi bosqichiga ko'tariladilar. Taxminiy xukmlar ikkinchi guruhdan boshlab bolalarturli vaziyatlarni, holatlarni aniq dalillar bilan isbotlab berishga o'tadilar. Bu davrga xos yana bir tafakkurning xususiyati tushuncha va hukmlar rivojlanishi bilan birga turli narsa va hodisalar haqida yuritilgan muhokomalar asosida xulosalar chiqarishga ham o'rganib boradi. 7-11 yoshgacha bolalarda induktiv va diduktiv xulosa chiqarish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ta'lim jarayonida tafakkurning analitik-sintetik faoliyati muhim rol o'ynaydi. Bolalartahlil qilish jarayonida yaxlit munosabatni yoki narsani bo'laklarga ajratib, ularning uzviy bog'liqligini aniqlaydi. Sintezda esa buning aksini bajaradi, ya'ni bo'laklarning yaxlit buyumga bog'lanishini aniqlaydi.

Hayot va faoliyat jarayonida (o'yin, o'qish va mehnat jarayonida) iroda taraqqiy etadi. Bola hayotining dastlabki yillarida ixtiyoriy harakatlarni asta-sekin egallab boradi va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatishga oid ba'zi usullarni mustaqil ravishda bajarishni o'rganadi.

Bola uchun dunyodagi hamma narsa yangilikday bo'lib ko'rinadi shu boisdan unda qiziqishlar tez yuzaga keladi va rivoj topadi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda ko'proq o'yin faoliyati rivojlangan bo'ladi va qiziqish uyg'otadi. Bu qiziqish 7-11 yoshgacha bo'lgan bolalarda ham ko'p jihatdan saqlanib qoladi. Dastlab maktabga borgunga qadar bolalarda o'yinga qiziqish paydo bo'ladi. Bolalar mashg'ulotlarning bir xil turlari bilan ko'proq, bir xil turlari bilan kamroq shug'ullanishga moyil bo'ladilar.

Keyingi vaqtlarda televizior ko'rish ommaviy odatga aylandiki, bu oilalarda kamol topib kelayotgan bolalar psixologiyasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi. Oilaning katta a'zolari telekanalardagi barcha teledasturlarni ko'raverishlari mumkin, Chunki berilayotgan har qanday kinoseriallar, teleshoular va xokozolarni to'g'ri tahlil etishga mulohaza yuritishga ularning aqli, salohiyati yetadi. Ammo oilada yosh avlod o'sib rivojlanib kelmoqda. Oilada ota-onalar tomonidan bolalarning televizorga munosabatlarini nazorat qilib bormasliklari, bee'tiborliligi, oilada bolaning betartib rejimi quyidagi holatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bugungi kunda bolalarda fantastik janglar umuman olganda bolaning yosh xususiyatiga mos bo'lmagan kinoserial va multfilmlarni ko'rishga extiyoji kuchli. Vaholanki bunday dasturlar nafaqat kechqurun balki ayrim telekanallar orqali kunduz kunlari ham berib borilmoqda.

Ayrim oilalarda bolalar soatining yo'qligi bolaga xohlagancha kechki dasturlarni ko'rish imkoniyatini beradi. Natijada ularda jinsga bog'liq

tushunchalarga qiziqish ertaroq yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu bolaning biologik rivojlanishiga ta'sir etmasdan qolmaydi.

Hozirgi zamonamiz har bir kishidan nafaqat yuksak darajadagi texnikaviy tayyorgarlikni, balki mustahkam sog'lik, yaxshi rivojlangan harakat malakalarini, harakat jarayonining juda aniq va tezligini, biror maqsadga qaratilgan diqqatini, aniq idrok etishni, irodaviylikni Hamda jismoniy tarbiya jarayonida hosil qilinadigan boshqa jismoniy va psixik sifatlarni talab etadi. Jismoniy rivojlanish inson organzmining biologik va fiziologik rivojlanishiga erishishdir. Qachonki bolaning jismoniy jihatdan sog'- salomatligiga erishilsa, unda chuqur bilim va aql mujassam bo'ladi. Shundagina biz uni komil inson deya olamiz. Komil inson jismonan sog'lom, ma'nan boy insondir.

Inson kamolotiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar sirasiga kiruvchi televideniyeining bolalar jismoniy rivojlanishiga ta'sirini ko'rib chiqsak.

Bolalarda televideniyeini tomosha qilishga qizikish juda yuqori. Biroq bu yoshdagi bolalar rivojlanishiga televideniyeining ijobiy ta'siridan salbiy ta'siri ortib bormoqda. Buni biz olib borgan tadqiqot ishlarimiz natijalariga asoslanib ko'rsatib o'tmoqdamiz.

Bugungi kun televideniyesida bolalar sportini rivojlantirishga doir ko'rsatuvlar qaysi bir jihatlaridan bolalarga quyidagilarni yuzaga keltiradi :

- sportchilar erishgan yutuqlar, ularning hayot faoliyatidan berilgan lavhalar bolalarda sportga bo'lgan qiziqishni tarkib toptiradi;

- sportning biror turi bilan shug'ullanish istagini yuzaga kelishida asos bo'ladi;

- mehnatga nisbatan hurmatni yuzaga keltirib, mehnatsevar bo'lishga intiladi va hokozo.

Bolalar jismoniy rivojlanishiga televideniyeining salbiy ta'siri jihatlarini ko'rsatib chiqsak:

- uzov vaqt televizior ko'rish, ko'z muskullarini toliqtiradi, ko'rish o'tkirligini susaytiradi;



- jismoniy mehnat bilan shug'ullanmasdan, bolalarning uzoq vaqt beharakat televizor ko'rishlari, ularning qon aylanish sistemasi jadalligini susaytirib bir maromda aylanishiga olib keladi. Bu esa organizmda oziq moddalar almashinuvi va kislorod bilan ta'minlanishni aktivligini susaytiradi;

- muntazam bir narsaga tikilib turishi uyqusirash, bosh og'rishi, lanjlik holatini keltirib chiqaradi;

Olib borgan tadqiqot va kuzatuv ishlarimizda bizni qiziqtirgan narsa shu bo'ldiki, hali endi o'zini tiklab olgan 3-4 yoshli bolalar ham sukut saqlab televizor ko'rishadi. Bu borada psixologlarning quyidagi fikrlarini e'tirof etish darkor:

“Juda kichik yoshli bolalarga atalgan ko'rsatuvlar mavjud emas. Shuning uchun 2 yoshdan kichkina bolalar televizor ko'rishlarini maslahat bermaymiz. Televisionsiz ham o'zlari eshitib, ko'rib, ushlab o'rganangan narsalari mavjud. Televizor bolalarni butunlay qamrab olib tashqi olamni o'rganishga halaqit qilishi mumkin.”

- Televideniye bola ruxiy rivojlanishiga ta'sir etib:

- har xil jangari, urush janjalli, fantastik, kinolarning barchasi bu yoshdagi bolalarda tajovuzkorlik xissini shakllantirishi va kuchaytirishi mumkin.

- kichik maktab yoshidagi bolalar uchun xos bo'lgan, aniq narsalardan abstratlash (chetga chiqish), umumlashtirishlar qilishi, ma'lum darajada mavhum xulosalar chiqarish ko'nikmasi vujudga keladi.

- Ta'lim jarayonida bu to'g'ri yo'lga qo'yilgan tarzda bo'ladi. Chunki berilayotgan ma'lumotlar bolalar tomonidan sharhlanadi, bolada bu ma'lumotga nisbatan shaxsiy munosabat tarkib topadi. Televideniye esa bola ko'r-ko'rona to'g'riligicha qabul qiladi. Bu esa bolaning ta'lim- tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- uzoq vaqt televizor ko'rish ko'z muskullarini toliqtirib, muntazam televizor ko'rish o'tkirligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

- yoshlikdan baland, shovqin-suronli tovushlar ichida bolaning rivojlanishi baland tovushga nisbatan adaptatsiya hosil qiladi va bola past tovushlarni uncha ilg'ay olmay qoladi.

- bu yoshdagi bolalar idrokining zaif tomoni ularda bilim, tajriba yetishmasligidadir. Bilim va tajriba paydo bo'lib borgani sari, bola dunyoni shunchalik to'g'ri, aniq idrok eta boradi. Bu borada televideniyeining ijobiy tomonlari ko'p, ammo to'g'ri kelgan yosh xususiyatiga mos bo'lmagan ko'rsatuv, kinolarni ko'raverishi bolaning tajribasizligi natijasida noto'g'ri idrok qilishiga olib kelishi mumkin.

Bu yoshdagi bolalarning xotirasi asosan obrazli xotira (ko'rish, eshitish xotirasi) ancha rivojlangan bo'lib, so'z mantiq xotirasi kamroq rivojlangan bo'ladi. Ko'rsatmalilik, yorqin taasurotlar bilan bog'liq bo'lgan kuchli his-tuyg'ular uyg'otadigan tassurotlar bilan bog'liq hamma narsalar bolada oson va uzoq vaqt esda qoladi shuning uchun bu yoshda yoshga mos bo'lmagan har hil dasturlarni ko'rgan bolalarning xotirasida salbiy taasurot va obrazlar uzoq vaqt saqlanadi.

Ta'lim jarayonida esa so'z mantiq xotirasi jadal rivojlantiriladi. Bu yoshdagi bolalar xayolini taraqqiy ettirishda hatto pedagoglar va psixologlar ham ma'lum qoidalarga rioya qiladilar. Hikoya qilib beradigan ertak yoki doston jozibali, ta'sirchan aniq faktlarga boy bo'lishi kerak; hikoya qilish davomida suratlar, ko'rgazmali qurollar va hokozo vositalardan foydalanish mumkin. Lekin bu vositalar hayotni o'stirishda yordamchi vositalar bo'lib qolishi kerak. Ko'rsatmalilikni ortiqcha qo'llash xayol taraqqiyotini tezlashtirmaydi, balki to'xtatib qo'yadi.

Televideniye ham ko'rsatmali vositalar sirasiga kiradi. Meyoridan ortiq ko'rsatmalilik xayol taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalar xayolini rivojlantirishda aniq narsalarni idrok etish bilan ularning fikran tasavvur qilinishini birga qo'shish foydalidir.

Televideniye bolaning nafaqat bilish jarayonlariga, balki holat va individual xususiyatlariga ham ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Amerikalik tadqiqotchilar ham televideniyeining bolalar kamolati uchun xatarli tomonlarini ko'rsatib o'tib, televideniye ko'rsatuvlari bolalarda haqiqiy olam to'g'risidagi tasavvurlarining kamayishiga olib kelishi mumkin. Bolalar meyoridan ortiq ko'rsatuvlarni tomosha qilsalar ularning diqqat ko'lami toliqadi.

Fikrlash qobiliyati ko'rsatuvlar andozasiga tushib qoladi. Shu bilan birga televideniyeqa tayziq va zararli illatlarni birinchi o'ringa qo'yib tayyorlangan ko'rsatuv va filmning namoyish etilishi bolalar shaxsining barkamolligiga, insonning ichki olamiga, dunyoqarashiga salbiy ta'sir qilishi aniq .

Demak, faqat yosh va aqliy darajalarga mos teledasturlarni ko'rish bolalarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

## **1.2. Televideniye va uning vazifasi**

Televideniye imkoniyatlarini tahlil qilar ekanmiz, u haqida turli fikrlarning mavjudligiga amin bo'ldik. Bir guruh olimlar e'tirofiga ko'ra televideniye fan-texnikaning ajoyib mo'jizasidir. Ayrim tadqiqotchilar esa, uni aksincha ta'riflaydilar. Ya'ni uni shaxs dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida tilga olishadi. Har ikkala yondoshuvning ham o'ziga xos jihatlari mavjudki, ularni aslo inkor etib bo'lmaydi. Ammo nima bo'lganda ham bugungi hayotimizni televideniyesiz tasavvur eta olmaymiz. U kishilar ma'naviy hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Televideniye dan nafaqat oila davrasida, balki barcha muassasa va tashkilot, transport va boshqalarda foydalanamiz. Tadqiq etayotgan muammoning mavjud holatini o'rganish jarayonida shunga amin bo'ldikki, yoshi katta kishilar televizorni oila davrasida ko'rishni yoqtirishadi, unga dam olish vositasi sifatida qaraydilar. Televizorda berilayotgan ayrim ko'rsatuv va kinofilmlarga e'tirozlari bo'lsa-da, baribir uni ko'ngilochar, siyosiy qarashlarini boyituvchi, axloqiy va aqliy tarbiyalovchi, dunyo voqealari va ilm-fan yangiliklaridan xabardor qiluvchi sifatida tilga olishdi. Taqiqotchi olimlar tomonidan o'tkazilgan tajribalarga ko'ra, bolalarning 96 % televideniye ni va 4 % internetdan foydalanishlarini e'tirof etganlar. Bundan ham ko'rishimiz mumkinki, televideniye ning mavqei juda yuqoriligidir. Axborotni qabul qilishda, televideniye ning afzalligi shundaki, u audio vizual vositadir, ya'ni ovozli nutq va ovozli ko'rsatuvdir.

Televideniye o'zining aniq maqsad va vazifalariga ega bo'lgan muhim ijtimoiy mexanizmdir. U inson va jamiyat hayotiga chuqur kirib borgan. Demak, u bir qator vazifalarni ham amalga oshiradi. Quyida televideniye ning ana shunday funksiyalari haqida to'xtalib o'tamiz.

**1. Axborotlarni yetkazish vazifasi.** Televideniye boshqa OAV singari insonning va jamiyatning axborotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish vazifasini bajaradi. Biroq, televideniye ning boshqa OAV dan farqli va ustun jihati shundaki, u axborotlarni tezkor, ko'rgazmali, asosli, ishonchli va to'liq tarzda yetkazish imkoniyatiga ega. Hozirgi kunda har bir insondan jamiyat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga doir axborotlardan xabardor bo'lib turish talab etilmoqda. Buning uchun axborot tahliliy ko'rsatuvlar asosiy vosita hisoblanadi va ular har bir telekanal orqali namoyish etilmoqda. Bunday ko'rsatuvlar orqali mamlakat va dunyo hayotida muhim o'rin tutadigan yangiliklar va meyordan tashqari bo'lgan holatlar (qurolli to'qnashuvlar, tabiiy ofatlar) haqida ma'lumot berib boriladi. Televideniye xodimlarining bunday faoliyatlari ularning tomoshabinlar o'rtasida muxlislarni ko'paytirish, telekanal obro'si va reytingini oshirishga bo'lgan intilishlari bilan bog'liqdir.

Telekompaniyaning axborotlarni yetkazishdagi tezkorligi uning texnologik va texnik jihatdan ta'minlanganligiga va xodimlarning malakasiga bog'liq. Axborotlarning tezkorligi ham mintaqaviy, ham global yangiliklarga taalluqli. Agarda ma'lumotlar tezkor va asosli bo'ladigan bo'lsa, u darhol mamlakat va butun dunyoga ayon bo'ladi. Televideniye – jamiyatda indikator vazifasini bajaradi. U har bir joyda bo'layotgan yangiliklardan insonlarni xabardor qilib turadi.

Axborot dasturlarida salbiy va fojialar haqidagi ma'lumotlar ham bo'lishiga qaramasdan, umumiy holda teletomoshabinlarda ijobiy taassurot qoldirishi lozim. Shu sababli ijobiy mazmundagi ma'lumotlar va maishiy xabarlar dastur so'ngiga qoldiriladi. Ayrim telekanallari yangiliklarni bolalar uchun tushunarli tarzda yetkazishga ham harakat qiladilar. Bunga misol tarzida «Yoshlar» telekanali orqali namoyish etiladigan «Davrning bolasi» dasturini keltirishimiz mumkin.

**2. Ma'naviy-ma'rifiy-madaniy funksiyalari.** Har qanday teleko'rsatuv qaysidir ma'noda insonni madaniy-ma'rifiy qarashlarga jalb etadi. Ayrim ko'rsatuvlar bu maqsadga bevosita qaratilgan bo'lsa, ayrim ko'rsatuvlar bilvosita bu maqsadni amalga oshiradi. Ko'rsatuvni tomosha qilar ekan, tomoshabin beixtiyor jurnalist, boshlovchi yoki boshqa ishtirokchilarni xatti-harakatlari, nutqi, kiyinishi va kamera oldida o'zini tutishiga e'tibor qaratadi. Shuningdek, qanday kiyinish kerak, qanday so'zlashish yoki omma oldida o'zini qanday tutishi kerakligi haqida tasavvur homil qilib boradi. Shuning uchun ham teleboshlovchilarga juda kata talablar quyiladi va ular ham tashqi qiyofasi, ham dunyoqarashi, ham nutqiga ko'ra tanlab olinadi.

Televideniye orqali namoyish etiladigan filmlar, spektakllar va jasiyat hayotiga doir siyosiy-iqtisodiy yangiliklar tomoshabinlarning bevosita ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tarbiyasiga ta'sir etadi. Aholining juda katta qismi mamlakat va dunyo hayotiga bog'liq yangiliklar, mashhur yoziuvchi yoki shoirning ijodi hamda hayoti haqida, qadriyatlar haqida televideniye orqali ma'lumotga ega bo'ladilar. Ma'naviy-ma'rifiy ko'rsatuvlarda ko'pincha didaktika elementlari mavjud bo'ladi. Bunday ko'rsatuvlarni tayyorlashda mutaxassislardan tomoshabinlarni jalb qila oladigan ma'lumotlardan foydalanish va ularni zeriktirmaslik talab etiladi. Buning uchun esa teletomoshabinlar uchun noma'lum bo'lgan yangiliklarni yoki ma'lum ma'lumotlarning noma'lum va qiziqarli jihatlarini topish hamda ularni rang-barang tarzda yetkazish talab etiladi. Zero, bunday ko'rsatuvlar shaxs dunyoqarashini shakllantirishning muhim elementi himoblanadi.

**3. Integrativ funksiya.** Televideniye boshqa OAV dan farqli ravishda jamiyatning turli ijtimoiy va madaniy qatlamlari orasida aloqani ta'minlaydi. Ya'ni, bir telekanal yoki teleko'rsatuvni bir vaqtni o'zida turli yosh va turli ijtimoiy qatlam vakillari tomosha qilishi mumkin. Bu esa o'z-o'zidan ularning asta-sekinlik bilan bir xil fikrlashlariga oli kelishi mumkin. Ular ayni bir voqea va hodisaga bir xilda munosabat bildira boshlaydilar va o'xshash fikrlaydilar.

Integrativ funksiyani amalga oshiradigan jurnalistdan ko'rsatuvni tayyorlashda yoki materialni tanlashda jamiyat ehtiyojlari va har bir

tomoshabinning ehtiyojlarini bog'lay olish talab etiladi. Bu vazifani amalga oshirish turli ijtimoiy, diniy yoki milliy qarashlarga ega bo'lgan tomoshabinlar auditoriyasi bilan ishlashda murakkablashadi.

**4. Ijtimoiy-pedagogik yoki boshqaruvchilik funksiyasi.** Televideniye tomoshabinlar auditoriyasini va umuman jamiyat a'zolarini tarbiyalash va boshqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi. Televideniye vositasida aholi o'rtasida ma'lum turmush tarzi tashviqot qilinadi, ma'lum bir siyosiy, axloqiy, ijtimoiy qarashlar shakllantiriladi, ma'naviy qadriyatlar va dunyoviy bilimlar haqidagi tasavvurlar hosil qilinadi. Televideniyaning ijtimoiy-pedagogik va boshqaruvchilik funksiyasi integrativ va axborotlarni yetkazish funksiyasi bilan chambarchas bog'liqdir.

Televideniyaning bu vazifasi u faoliyat yuritayotgan jamiyat va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy qadriyatlariga bog'liq. Masalan, rivojlanayotgan mamlakatlarda televideniye, asosan, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lsa, totalitar tuzumda televideniyaning barcha sohadagi siyosatini qo'llab-quvvatlashga qaratiladi. Djemokratik jamiyatda esa televideniye «to'rtinchi hokimiyat» hisoblanadi.

Televideniye va davlatning hamkorligi jamiyatning rivojiga hissa qo'shadi, qachonki televideniye orqali tarqatilayotgan ma'lumotlar milliy va ma'naviy rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa.

Shuni ta'kidlash lozimki, televideniye orqali berilayotgan ma'lumotlar davlat siyosiy tuzumga bog'liq bo'lmagan holda, obyektiv va xolis bo'lishi lozim. Aks holda, teletomoshabinlarning ishochini yo'qotishi mumkin.

**5. Tashkilotchilik funksiyasi.** Tashkilotchilik va boshqaruv funksiyasi bu bitti tushuncha emas. Televideniye ba'zan aniq maqsad asosida, ba'zan majburan yoki tasodifan ayrim tadbirlarning tashkilotchisi sifatida tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda faoliyat yuritadi. Bunga misol tarzida xayriya telemarafonlarini, ijtimoiy so'rovlarni, obodonlashtirish-ko'kalamzorlashtirish tadbirlarini yoki yo'l harakati xavfsizligiga doir tadbirlarni keltirishimiz mumkin.

**6. Ta'limiy funksiya.** Hozirgi kunda qator G'arb mamlakatlarida doimiy ravishda ta'limiy dasturlarni namoyish etuvchi telekanallar faoliyat yuritmoqda. Bunday telekanallar bilim oluvchilarga yordam tarzida qo'shimcha ma'lumotlar sifatida (til o'rganuvchilar uchun yoki abituriyentlar uchun) yoki qo'shimcha bilimlarni o'zlashtirish uchun bolalarlarga yordam sifatida tashkil etiladi.

Rekreativ funksiya. Televideniye ning bu funksiyasi jurnalistika bilan bevosita aloqador bo'lmasada, televideniye uchun xarakterlidir. Rekreatsiya – bu hordiq, dam olish, salomatlik va kuchni to'plash demakdir. Ko'pgina insonlar televizor qarshisida dam olishni ma'qul ko'radilar. Buning sababi esa televideniye orqali juda ko'p rekreativ xarakterdagi ko'rsatuvlar namoyish etilishida. Rekreativ xarakterdagi telemahsulotlar (kliplar, komediya janridagi filmlar, tanlovlar, shoular) maxsus telekompaniyalarda tayyorlanadi.

Xullas, televideniye kanallari inson hayotining barcha sohalarini qamrab oladi, ular ongidagi axboriy bo'shliqni va bo'sh vaqtini to'ldiradi. Ammo, hozirgi kunda televideniye dagi holatni va uning faoliyatini qoniqarli deb bo'lmaydi. Chunki uning ko'rsatuvlari aholining turli yoshdagi qatlamlari hayotini to'liq qamrab ola olmagan. Masalan, kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mo'ljallab tayyorlanayotgan ko'rsatuvlar juda kamchilikni tashkil etadi. Mavjudlari ham talabga javob bermaydi. Keyingi bobda televideniye ning bolalar uchun mo'ljallangan dasturlari tahlilini keltiramiz.

### **I.3. “Bolajon” telekanalining dasturlari tahlili**

Televideniye dasturlarining shaxs dunyoqarashiga ta'sirini o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi aholisining sevimli kanallariga aylangan “O'zbekiston”, “Yoshlar” va “Bolajon” telekanallari dasturlarini tahlil qilishga qaror qildik. Chunki, bu kanallardan barcha o'zbek oilalari ommaviy tarzda foydalanib kelmoqdalar. Shunday ekan, yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda ushbu kanallarning ham o'rni beqiyos.

Shuni ta'kidlash joizki, ushbu kanallar respublikaning har bir regioniga uzatiladi.

Televideniye janrlarining tasnifi haqida fikr yuritar ekanmiz, utslarni quyidagi guruhlarga ajratdik:

**1. Informatsion dasturlar** (yangiliklar). Bu guruhga doimiy ravishda berib borilayotgan 8 tadan 10 tagacha bo'lgan xabarlardan iborat ko'rsatuvlarni kiritdik. Bunday ko'rsatuvlarda yangiliklar asosan xabar tarzida yetkaziladi.

**2. Publitsistik dasturlar** – ocherklar, reportajlardan iborat bo'lib, bunday ko'rsatuvlar davomida ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy-ma'rifiy sohadagi muammolar batafsil tahlil qilinadi.

**3. Ko'ngilochar dasturlar.** Televizion shoular, mashhur insonlar bilan uchrashuvlar, foydali maslahatlar, sirk, konsert va h.k.

**4. Ma'naviy-ma'rifiy dasturlar.** Hujjatli filmlar, spektakllar, salomatlik haqidagi ko'rsatuvlar va h.k.

**5. Bolalardasturlari.** Maktabgacha tarbiya yoshidagi va kichik maktab yoshidagi bolalaruchun mo'ljallangan filmlar, shoular.

**6. Sport dasturlari.** Sport musobaqalari haqidagi xabarlar va musobaqalar translatsiyalariga bag'ishlangan ko'rsatuvlar.

**7. Badiiy filmlar.** Bu guruhga 1 dan 12 tagacha seriyadan iborat filmlar kiritiladi.

**8. Ko'p seriyali filmlar yoki seriallar.**

**9. Reklama dasturlari.** Reklama yangiliklaridan iborat syujetlar va roliklar.

Mavzuiy xususiyatigi ko'ra «O'zbekiston» va «Yoshlar» telekanali ko'rsatuvlarini quyidagi guruhlarga ajratdik:

*1. Yangiliklar.*

*2. Badiiy filmlar.*

*3. Ko'p qismli filmlar yoki seriallar.*

*4. Bolalarko'rsatuvlari.*

*5. Ko'ngilochar dasturlar.*

*6. Ma'naviy-ma'rifiy dasturlar.*



7. *Publitsistik ko'rsatuvlar.*

8. *Reklama dasturlari.*

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi barcha hududlarida sport dasturlari "Sport" telekanali orqali namoyish etilganligi sababli, har ikkala tahlil qiliniyotgan telekanalarda sport dasturlari uchun o'rin ajratilmagan.

"O'zbekiston" telekanalida ham "Yoshlar" telekanalida efir vaqtining katta qismi seriallarga ajratilgan. "O'zbekiston" telekanali respublikadagi asosiy telekanallardan biri hisoblanadi. Shu sababli yangiliklar hamda ma'naviy-ma'rifiy dasturlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Ammo bu kanalda reklama va anonslar uchun 6% vaqt ajratilgan. Ma'naviy-ma'rifiy dasturlarga esa ko'p vaqt ajratiladi.

"Yoshlar" telekanalida seriallar va badiiy filmlar uchun ko'p vaqt ajratiladi (45%). Bu kanalda reklama va anonslar namoyishi uchun imkoniyatlar katta ekanligi sababli ularga 673 daqiqa (6,7%) ajratilgan. Ya'ni reklama va anonslar asosan seriallar hamda badiiy filmlar, ko'ngilochar dasturlar davomida namoyish etiladi. Bu telekanalda ma'naviy-ma'rifiy dasturlar uchun ham kam vaqt ajratilgan (5,8%). Demak bu telekanal asosan yoshlarning dam olish vaqtlarini qiziqarli tashkil etishni maqsad qilib olgan.

Yangiliklar har ikkala kanalda ham birinchi o'rinda turibdi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yangiliklar haqida ma'lumot berishda, televideniye tahlillardan saqlanadi.

Filmlar namoyishi hozirgi kunda televideniyyeda teleseriallarga o'z o'rnini bo'shatib berganligini kuzatishimiz mumkin. Bir kunda har bir telekanalda 5-6 tagacha teleserial namoyish etiladi. Teleseriallar tomoshabinlarini ko'pligini inobatga olgan holda, televideniye xodimlari reklamalar va anonslar namoyishida, ko'proq, seriallardan foydalanishadi. Bunday namoyishlar davrida 60 minutning 12-15 minutida reklamalar namoyish etiladi.

Ma'naviy-ma'rifiy dasturlar ham televideniyyening efir vaqtini juda kam egallagan. Bundan tashqari haftalik va kunlik ko'rsatuvlar dasturlarini

kuzatganimizda, bu ko'rsatuvlar takror namoyish etilishini ham kuzatishimiz mumkin. Demak, ko'rsatuvlar rang-barangligi birmuncha sustroq.

Ko'ngilochar dasturlar zamon talabiga javob bermaydi. Undan tashqari, chet mamlakatlar televideniylaridan "ko'chirib" olingan ko'rsatuvlarni milliy mentalitetimizga moslashtirish ko'rsatuvlar ijodkorlaridan ancha mehnat talab qiladi.

Zamonaviy televideniyaedagi muammolarni quyidagicha izohlash mumkin:

birinchidan, har bir telekanalning asosiy maqsadi moliyaviy muammolarni hal etishda reklama va anonslardan foydalanishga qaratilmoqda;

ikkinchidan, ko'rsatuvlar va filmlar reytingini aniqlashda tomoshabinlarning juda sayoz fikrlari va reklama beruvchilarning talablari ko'proq inobatga olinmoqda;

uchinchidan, shou va telemusobaqalarni tashkil etishda ko'chirmachilikka yo'l qo'yilayotganligi va milliy xususiyatlar kam inobatga olinayotganligi;

to'rtinchidan, O'zbekiston televideniyesining tarixiy yutuqlariga kam e'tibor qaratilayotganligi;

2013-yilning 30-may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi "Yoshlar" teleradiokanali" yopiq aksiyadorlik jamiyati qoshida bolalarga mo'ljallangan yangi raqamli "Bolajon" telekanalini tashkil etish to'g'risida"gi qarorni



imzoladi. 2013-yil 1-iyundan efirga chiqa boshlagan "Bolajon" telekanali Xalqaro bolalarni himoya qilish kuniga mamlakatimiz bolalari uchun munosib sovg'a bo'ldi.

"Bolajon" yangi telekanali dasturlari mamlakatimizga amaldagi raqamli teledasturlar ijtimoiy paketi tarkibida tarqatildi.

3 yoshdan 10 yoshgacha bo‘lgan bolalarga mo‘ljallangan “Bolajon” yangi raqamli telekanalining asosiy vazifalari va faoliyat yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

✓ bolalarda atrof olamni idrok etish, ularda milliy qahramonlar, o‘zbek xalqi va boshqa xalqlarning dostonlari, eposlari, ertaklari personajlari misolida ezgulik va adolat tushunchalarini shakllantirish hamda qaror toptirishga yo‘naltirilgan bilim beruvchi va aqlan rivojlantiruvchi televizion dasturlar tayyorlab namoyish etish;

✓ bolalarning qiziquvchanligini, aqliy va ijodiy faolligini rivojlantirish, ko‘ngilochar-o‘rgatuvchi televizion ko‘rsatuvlar, maktabgacha yoshdagi va kichik maktab yoshidagi bolalar uchun mo‘ljallangan intellektual o‘yinlar va viktorinalar namoyish etish



orqali ularda aqliy hamda jismoniy mehnatning boshlang‘ich ko‘nikmalari va madaniyatini shakllantirish;

✓ jajji teletomoshabinlarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda zamonaviy interaktiv shakl va usullaridan, raqamli va multimediyali texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalanib bolalarning atrof olamni bilish, undagi qiziqarli va yangi narsalarni kashf etishga bo‘lgan intilishlarini qo‘llab-quvvatlash;

✓ bolalarning xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus o‘quv teleko‘rsatuvlari tayyorlash hamda bolalarga mo‘ljallangan badiiy, multiplikatsion va ma‘rifiy filmlarni xorijiy tillarda, o‘zbek tilidagi subtitrlar bilan, namoyish etish;

✓ bolalarda tabiatni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni oshirish, ona tabiatga mehr-muhabbat va atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish, uy

hayvonlarini, parrandalarni, akvarium jonzotlarini, shuningdek, xona o‘simliklarini to‘g‘ri parvarishlashga o‘rgatish;

✓ bolalarga jismoniy tarbiya asoslarini singdirish, ularni sportga qiziqtirish, bolalar o‘rtasida musobaqa ruhini kuchaytirish, ularga o‘z salomatliklarini asrashni hamda sanitariya-gigiyena qoidalarini o‘rgatish.

Ushbu kanal faqat bolalarga mo‘ljallangan bo‘lib, u ertalab 7. 00 da boshlanadi va kechki 10 da yakunlanadi.

Uning asosiy ruknlari quyidagilardan iborat: “Multipanarama”, ”Bilag‘on bolajon”, “Bolajon oshxonasi”, “Quvnoq startlar”, “ABC kids”, “Sog‘lom bolajon”, “Mohir qo‘llar”, “Shaxsiy gigiyena”, “Bolajon gimnastikasi”, “Bravo ingliz”, “Feruz va Aziza ko‘rsatuv”, “Tabiatga sayohat”, “Katta tanaffus”, “Sirli o‘rmoncha”, “Ertakchi bolajonlar”, “Xappiy alfabet”, “Bolajonlar



sahnasi”, “Landi, landi”, “Topqir bolajon”, “Zukkolar” va boshqalar. Ushbu ruknlar juda qiziqarli olib borilmoqda. U qisqa vaqt ichida bolalarning sevimli kanaliga aylanib ulgurdi. Telekanalda bolalarni har tomonlama: ham jismonan, ham ma‘nan tarbiyalashga harakat qilinadi. Shuningdek, uning ruknlari bolaning

dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, “ABC kids”, “Bravo ingliz” dasturlari orqali bolalaringliz tilini o‘rganadilar. Bunda bolalarturli-tuman o‘yinlar, rang-barang vositalar yordamida tilni o‘zlashtiradilar. Shu bois bolalarbu ko‘rsatuvni bajonudil tomosha qiladilar. Ingliz tiliga oid atamalarni yod oladilar va talaffuz qilishga o‘rganadilar.



“Katta tanaffus”, “Topqir bolajon”, “Zukkolar” kabi dasturlarda bolajonlarning aqliy qobiliyatini rivojlantirishga e’tibor qaratiladi. Ushbu dasturlar bolalarning o‘zlari tomonidan olib boriladi va unda bolalarmuaamoli vaziyatlarni yechadilar, turli savollarga javob topadilar, aqliy harakatda bo‘ladilar.

Bolalarni jismoniy rivojlantirish va ular o‘rtasida sog‘lomlashtirish ishlarini targ‘ib qilish maqsadida “Quvnoq startlar”, “Sog‘lom bolajon”, “Shaxsiy gigiyena”, “Bolajon gimnastikasi” kabi dasturlar olib boriladi. Ushbu dasturlar ham juda qiziqarli tarzda tashkil etilgan. Shuningdek, bolalarushbu dasturlar orqali sportga oid yangidan-yangi ma’lumotlardan xabardor bo‘lib boradilar. Masalan,



sport o‘yinlari, turlarining qachon va qayerda paydo bo‘lganligi, sport anjomlarini bilib oladilar.

“Bolajon oshxonasi” ko‘rsatuvini alohida tilga olishimiz joizki, uni bolalarsevib tomosha qiladilar. Uning bosh qahramoni “Qozonoy opa” bolalarga sabzavot va mevalarning foydali xususiyatlarini, ularni qanday qilib saqlashni va ovqat, salat, pishiriq tayyorlashni o‘rgatib boradi.



“Ertakchi bolajonlar”, “Bolajonlar sahnasi” ko‘rsatuvlarida bolajonlar o‘zbekona qadriyatimiz bo‘lmish odob-axloq qoidalarini o‘zlashtiradilar va o‘zlariga kerakli xulosani chiqarib oladilar.

“Bolajon” telekanalida eng ko‘p vaqt ajratilgan ko‘rsatuv bu “Multipanarama”dir. Bunda bolalarturli multifilmlarni tomosha qiladilar.



Multifilmlar turli mavzularda bo‘lishi bilan birgalikda, turli xalqlar turmushidan olinganligi bilan ajralib turadi. Hatto chet el

multifilmlari ham berib boriladi. Shuni alohida ta'kidlashimiz kerakki, multifilmlarga ovoz juda mahorat ila berilgan. Ovozlar bolalarni bezdirmaydi. Aksincha, ular bolalarda barcha ijobiy sifatlar, dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiladi. Multifimlardagi badiiy bezak, ranglarning uyg'unligi, yorqinlik bolalarni o'ziga jalb etmay qolmaydi. Albatta bolarmultfilm qahramonlarining xatti-harakati, muomalasidan o'zlariga kerakli xulosani chiqarib oladilar. Yovuzlik ustidan yaxshilikni g'olib kelishini tushunib yetadilar.

“Mohir qo'llar” ko'rsatuvida bolalarmehnat qilishga o'rganadilar, mehnat insonni ulug'lashini anglab yetadilar.

Umuman olganda “Bolajon” teledasturi boshlang'ich guruh bolalarlarining ham sevimli dasturidir. Dastur ruknlari orasidagi vaqt qisqaligi bilan ajralib turadi. Bunda bolalarning yosh xususiyatlari hisobga olingan. Negaki, uzoq muddatli ko'rsatuvlar bolalarning ko'rsatuvdan zerikishiga olib keladi.

## II BOB. TELEVIDENIYE VOSITASIDA BOLALARLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH MAZMUNI

### 2.1. “Bolajon” telekanali- bolalarlar dunyoqarashini shakllantirish vositasi

Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi bolalarlar dunyoqarashini shakllantirishda televideniya foydalanishni yanada samarali usullarini ishlab chiqishdan iborat edi. Mana shu maqsad asosida televideniya dasturlarining maktabgacha yoshidagi bolalarning mashg'ulotlari jarayonida foydalanish yo'llarini ishlab chiqishga harakat qildik.

Biz pedagoglar televideniya dasturlaridan ta'lim jarayonida o'rinli foydalanadigan bo'lsak, uning samarasi yanada ortib, bolalarning dunyoqarashi yuksalib boraveradi. Negaki, olib borgan tadqiqotimizga ko'ra bolalarning televideniya qizishlari yuqori, ayniqsa, ularga berilayotgan bilimlar televideniya asosida mustahkamlanib borilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Jumladan, maktabgacha tarbiya muassasalari mashg'ulot jarayonida hafta davomida bolalar uchun namoyish etilgan multfilmlar yoki badiiy filmlardan foydalanib, turli tele-dasturlardan topshiriqlar berish mumkin.

#### *Men yoqtirgan multfilm*

*Men multfilm ko'rishni juda yoqtiraman. Masalan, "Oppoqoyim", "Maugli", "Sohibjamol va maxluq" multfilmlarini qayta-qayta tomosha qilaman. Oppoqoyimning mehribonligi, mehnatkashligidan har birimiz o'rnak olsak arziydi. Maugli esa jasur va dovyurak. Bu multfilmlarda yomonlik ustidan yaxshilik g'alaba qiladi.*

Bir necha guruhlarda shu mazmunda suhbatlar tashkil etish orqali bolalar qaysi multfilm va qahramonlarni, qaysi bolalar uchun mo'ljallangan dasturlarni ko'rishini bilib olish mumkin. Bolalar savollarga javob berar ekan, fikrlarni mantiqiy bog'lashga harakat qiladilar. Bunda ularning so'z boyligi, savodxonligi, fikr doirasining keng yoki torligi asosiy ahamiyatga ega.

Bunday suhbatlar o'zbek xalq og'zaki ijodi namunasi bo'lmish "Zumrad va Qimmat" ertagi, "Oltin beshik", "Ochko'z boy", "Olin tarvuz", "Susanbil", "Egri va to'g'ri" ertagi asosida ishlangan multfilm yoki "O'r to'qmoq", "Laylak", "Echki va uning bolalari" nomli bolalar tomonidan sahnalashtirilgan multfilmlar asosida o'tkazilishi mumkin.

Tadqiqotimiz jarayonida ushbu mavzularda MTM bolalarlari bilan "Mening sevimli qahramonim" mavzusida rasmlar ko'rgazmasini tashkil etdik, unda har bir bola o'zi chizgan rasmlar bilan qatnashdilar. Bunda bizga MTMning malakali tarbiyachilari yordam ko'rsatishdi. Rasmlarni namoyish qilish bilan birga bolalar uni izohlashlari talab etildi. Qo'shimcha savollar orqali ularning dunyoqarashini o'rganishga harakat qildik.

Demak, bolalarda televidiniye asosida quyidagi sifatlar shakllantirilishi kerak:

- Vatan va ona tabiat to'g'risidagi tushunchalarning mazmun-mohiyatini va ushbu tushunchalarning inson hayotidagi o'rnini;
- Vatan ramzlarini va ularda nimalar ifodalanganligini bilishlari, madhiyani kuylay olishlari va undagi so'zlarning ma'nosini tushuna olishlari;
- Konstitutsiya, Mustaqillik bayrami, harbiylar kuni, milliy bayramlarni nima munosabatda nishonlanishini;
- Vatanimizdan yetishib chiqqan mashhur allomalarni va ularning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini, milliy qahramonlarning nomlarini;
- Vatanimiz boyliklari, tabiati, hayvonot dunyosi, ob-havosi haqida ma'lumotga ega bo'lishlari va ularni asrab-avaylash kerakligini;
- Yurtimizdagi obidalarning tarixini bilishlari;
- Go'zallikni his etishni o'rganishlari;
- Inson qadri va uning huquq va burchlarini anglashlari;
- O'zbekona axloq va odob meyorlarini bilishlari va amal qilishni o'rganishlari;
- Jismoniy tarbiyaning aqliy tarbiya bilan bog'liq ekanligini;
- Chet tillarni bilishga intilishlari;



-Mehnatning qadrini;

- Hisob-kitobni bilishi va boshqalar.

Bolalar bilan olib borgan tajriba-sinov ishlarimiz shuni ko'rsatdiki, maktabgacha ta'lim jarayoni va televideniye o'rtasidagi aloqadorlik bolalar dunyoqarashini boyitishga, televideniye dasturlariga jiddiy va ijodiy munosabatni shakllantirishga, dunyo, o'zbek xalqi, uning tarixi, tabiati haqidagi tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi.

Televideniye asosida bolalarlar dunyoqarashini shakllantirishda bolalarlarning ota-onalari bilan pedagogik o'qishlar va hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda ularga bu borada metodik tavsiyalarni berish maqsadga muvofiqdir. Zero, yosh avlod ta'lim-tarbiyasidagi muammolarni hal etishda o'zaro hamkorlik muhimdir. Bizning ota-onalar bilan o'tkazgan tajriba-sinov ishlarimiz ham ushbu fikrimizni tasdiqlaydi. Negaki har bir ota-ona oldida turgan muammolardan biri- bu televidiniyega bolalarlarning tobe bo'lib qolishi va vaqtni unutishidir.

Bolalar dunyoqarashini o'stirishda "Bolajon" telekanalining ahamiyati o'rganish bo'yicha olib borgan so'rovnomada qatnashgan ayrim ota – onalarning fikr mulohozalari quyidagicha bo'ldi:

"Bugungi kun televideniyesining bolalar dunyoqarashiga ta'siri qanday?" savoliga yosh ota-onalarimizdan biri Parmonova Laylo opa shunday deydi: "Bugun televideniyesiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Farzandlarimiz televideniye bilan juda ko'p axborotlarni olishadi, analiz va sintez qilishadi. Raqs va qo'shiqlarni tinglaydi va nutqi boyiydi. Ayniqsa, rangli va tiniq televideniye bolalarni tezda jalb etadi, u orqali bolalarlarning estetik dunyosi, dunyoqarashi boyib boraveradi".

Boymatova Munavvar: "Boshqa vositalar ya'ni internet, telefondan ko'ra televideniyesining bolalar dunyoqarashiga ko'rsatadigan ta'siri ijobiy deb o'ylayman. Ayniqsa, hozirgi kunda "Bolajon" teledasturida farzandlarimiz uchun nihoyatda foydali bo'lgan ruknlar berib borilayapti, ba'zan ularni biz ham maroq bilan tomosha qilamiz. Ammo bolalarimiz televideniye oldida o'tirib vaqt o'tganini bilmay qolayapti va natijada ular teledasturlarga tobelik hosil bo'layapti. Men buni nazorat qilishga harakat qilaman. Ammo ishdan bo'lgan vaqtimchi, bu vaqtda

nazoratni amalga oshira olmayapman. O‘z navbatida farzandlarimni televizor ko‘rishdan mahrum qilishni ham hohlamayman. Negaki, u tufayli bolalarim chet tilini o‘rganayapti, qiziqarli o‘yinlarni tomosha qilib, dam olayapti. Ba‘zan ushbu muammo o‘zimni ham qiynaydi”.

Oripova Dilafro‘z: “Televizor ko‘rma desak, farzandlarimiz nima bilan band bo‘lishadi. Ko‘chada yomon bolalarga qo‘shilib ketgandan ko‘ra, albatta televizor ko‘rgani ma’qul. Men shunday deb o‘ylayman. “Bolajon”ni o‘g‘lim bilan birgalikda o‘zim ham ko‘raman. Ayniqsa, ingliz tilidagi bir necha so‘zlarni ham o‘rganib oldim. Faqatgina ayrim multfilmlarga e’tirozim bor. Ularning kinolardan farqi qolmadi. Hozirdan yosh bolaga sevgi- muhabbatni o‘rgatishimiz kerakmikan, deb o‘ylab qolaman”.

Qahhorova Maftuna: “Hozirga bolalarga televizor ko‘rishni ta’qiqlashning o‘zi axmoqlik meningcha. Negaki, bolalarga televizor ko‘rma desak, ko‘chadagi internet kafelarga yugurishadi. Undan ko‘ra televizor ko‘rishsin, faqat meyordan oshmagan holda. Men ko‘proq bolalarimning bo‘sh vaqtida turli o‘yinlar bilan band qilaman. Ammo achinarli bir holatni alohida ta’kidlashimiz kerak, bolalarimiz badiiy kitob o‘qimay qo‘yishdi. Bu o‘z navbatida ularning dunyoqarashiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi ”.

Olingan ma’lumotlarga ko‘ra ota-onalar “Bolajon” telekanalining ahamiyatini yuqori baholaydilar. Ayniqsa, uning bolalar dunyoqarashini o‘stirishdagi vazifasini har biri tilga olmoqda. Ular biz tanlagan mavzuga xayrixohlik bilan qaraydilar, axborotlarning zarari to‘g‘risida bolalarga tushunchalar berib boradilar, lekin ularning bu ishga nazorati talab darajada emas. Ularning ushbu muammo doirasidagi faoliyatlarida jiddiy yondoshish, maqsadga yo‘naltirilganlik alomatlari sezilmaydi. Demak, ularning biz tanlagan mavzu doirasidagi munosabatini qoniqarli deb bo‘lmaydi.

Shu bois keyingi paragrafda ushbu masalaning barchaga ma’lum, biroq e’tiborsizligimiz tufayli samarasi pasayib ketgan yo‘l haqida fikr bildiramiz.

## **2.2. Ommaviy axborot vositalaridan keladigan xavflarni bartarf yo'llari**

Bugungi davr faoliyatini kuzatar ekanmiz, ular tarbiyasida oila, bog'cha va mahalladan ko'ra shiddatkor zamonning o'ziga xos ko'rinishlari ustunlik qilayotganligini ko'ramiz. To'g'rida biz kattalar doimo o'z yumush va tashvishlarimiz bilan band bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi bilan televizor, internet, kompyuter kabi vositalar shug'ullanadida. Buning natijasida esa ayniqsa, bolalar bir qator salbiy omillar ta'siriga berilib ketib, inson hayoti uchun qimmatli bo'lgan, vaqt deb atalmish bebaho boylikni qadrlashni unutib qo'ymoqdalar. Kunlab, soatlab televizor qarshisida yoki internet kafelarda o'tirish, bema'ni o'yinlarni o'ynash kabi holatlar ayniqsa, yosh bolalar tarbiyasiga, ularning jismoniy, ruhiy va ma'naviy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Zero, biz barpo etayotgan jamiyat uchun har tomonlama yetuk: jismoniy sog'lom va ma'naviyati yuksak yoshlar zarur.

Bolalar faoliyatini maqsadli tashkil etish - ularni kun tartibiga rioya qilishga o'rgatishdan boshlanadi. Bizga ma'lumki, kun tartibiga amal qilgan bola jismoniy tetik, ma'nau sog'lom bo'lib voyaga yetadi. Chunonchi, bolaning kun tartibida albatta dam olish, mashg'ulotlarda qatnashish, ovqatlanish, o'z-o'ziga xizmat qilish, sport bilan shug'ullanish, televizor ko'rish kabi yumushlar bo'lishi darkor. Va aksariyat oilalarda bolalarning bu yumushlarni o'z vaqtida bajarishi ustidan nazorat olib boriladi. Afsuski, guruch ko'rmaksiz bo'lmaganidek, bola kun tartibini tuzib berish yoki nazoratini amalga oshirishda oqsayotgan, ba'zan umuman e'tiborsiz ota-onalar va tarbiyachilar uchrab turadi. Ayniqsa, keyingi yillarda mana shunday salbiy holat tufayli ko'plab bolalar vaqt degan qimmatli boylikni nima ekanligi unutib qo'ymoqdalar. Bolalarning soatlab, kunlab televizor oldida o'tirishi, ko'chada to'p tepishi, telefonda gaplashishi kabilar bizning fikrimizga yaqqol dalil bo'ladi. Bunday bolalar faoliyatida qator salbiy holatlarni kuzatish mumkin, ya'ni tajanglik, xorg'inlik, egoistlik, qo'rquv, o'z vaqtida ovqatlanmaslik va h.k. Chunki, ular kun bo'yi televizor ko'radilar va shu bois kech uxlaydilar, natijada yuqoridagi holat yuzaga keladi. Keyinchalik esa bolaning tiniqib

uxlamasligi, o'z vaqtida ovqatlanmasligi tufayli ularda turli kasalliklar ham avj olishi mumkin. Bunday bolalarda kamqonlik, tajanglik, o'z-o'zidan qoniqmaslik hissi, oshqozon-ichak kasalliklari tez-tez uchraydi.

Shuning uchun biz pedagoglar bolani qanchalik kun tartibiga rioya qilishga o'rgatishni erta boshlasak shunchalik oldimizga qo'ygan maqsadimizga tez va oson erishamiz. Kun tartibiga rioya qilishda bolalarda ko'nikma hosil bo'ladi. Dam olishi, bog'chaga borishi, ovqatlanish, sport va boshqa amallarning ma'lum tartibda ketma-ket bajarilishi tufayli bolaning kun tartibi oqilona taqsimlanadi. Kun tartibida ko'rsatilgan hamma ishlarni o'z vaqtida bajarish bolaning toliqib qolmasligiga olib keladi. Ayniqsa, bog'chadagi topshiriqlarni bajarishda qiynalib qolmaydi, har doim sog'lom va tetik yuradi. Kun tartibini hamma har xil tuzishi mumkin. Lekin shunday tadbirlar borki, ularni hamma bola birdek bajarishi kerak. Hamma birdek bajarishi lozim bo'lgan tadbirlarga quyidagilar kiradi:

Ertalabki badantarbiya.

Ertalabki yuvinish va taranish.

Ovqatlanish.

Bog'chaga borish.

Ochiq havoda sayr.

Televizor ko'rish va turli o'yinlarni o'ynash.

Kechqurungi yuvinish-taranish.

Ushbu tadbirlar barcha bolalar tomonidan birdek bajarishi lozim bo'lgan tadbirlardir. Albatta bu tadbirlar umumiy tadbirlar sarasiga kiradi. Endi ularni kenroq ifodalasak yoki vaqtlarga taqsimlaydigan bo'lsak, quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

1. 7-00 da o'yqudan turish.
2. 7-00 dan 7-20 gacha badantarbiya va yuvinish
3. 720 dan 740 gacha ertalabki nonushta
4. 740 dan 800 gacha bog'chaga borish
5. 800 dan 1300 gacha bog'chada ovqatlanish, dam olish, mashg'ulotlarda qatnashish, sayrga chiqish

8. 1300 dan 1500 gacha dam olish
9. 1500 dan 1630 gacha jismoniy mashqlarni bajarish
10. 1630 dan 1730 gacha o'yga ketish
11. 1730 dan 1800 gacha mustaqil uyin uynash
12. 1800 dan 1900 gacha kechki nonushta
13. 1900 dan 20 gacha televizor ko'rish
14. 20 dan 20 -30 gacha yuvunish
15. 21-30 dan 700 gacha tungi dam olish.

Ushbu taqsimotni tahlil etadigan bo'lsak, unda bolaning bir kunlik faoliyati qamrab olingan. Mana shu taqsimotga asoslangan faoliyat bola faoliyatining maqsadli tashkil etilishiga olib keladi. Negaki, bola o'z faoliyatini to'g'ri taqsimlay olsagina barcha ishlarga ulguradi va zararli axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi.

Yuqorida bola kun tartibiga kiritilgan har bir tadbirning alohida vazifasi va ahamiyati bor, u bolani barkamol inson etib tarbiyalashning asosiy omilidir.

*1. Ertalabki badan tarbiya - (uchun 20 minut ajratiladi.) bola kun tartibida asosiy o'rinni egallaydi. Uni har bir o'quvchi o'z o'rnini yig'ib olgandan keyin ota-onasi bilan birga, keyinchalik o'zi mustaqil bajara olishi kerak. Badantarbiyaning ahamiyati shundaki, uni bajarish orqali o'quvchida tetiklik, kayfiyatning ko'tarilishi kuzatiladi. Ayniqsa, har bir a'zo uchun bajarilgan alohida mashqlar o'quvchida ham jismoniy, ham ruhiy sog'lomlikni ta'minlaydi.*

*2. Yertalabki yuvinish-taranish. Badantarbiyadan keyin amalga oshiriladi. U o'quvchining yanada sog'lom bo'lishini kafolatlaydi. Shaxsiy gigiyena rioya qilish, tanasini toza saqlashga o'rgatish har bir ota-ona va o'qituvchining vazifasidir. Tish, yuz-qo'llarning tozaligi, tirnoqlarning yaxshilab olinishi kabilar bunga misol bo'ladi. Tozalik, ozoda yurish-turish nafaqat o'quvchining o'zi uchun balki, uning atrofida uchun ham yaxshi kayfiyat baxsh etadi.*

*3. Ovqatlanish. Kun davomida o'quvchi kamida uch marta ovqatlanishi lozim. Bular: nonushta, tushlik va kechki taom. Ota-onalarning o'quvchini ovqatlanishiga e'tibor qaratishi nihoyatda muhim hisoblanadi. Negaki, bolalar organizmi tinimsiz o'sish va rivojlanishda bo'ladi. O'sayotgan organizm uchun esa albatta oqsil,*

uglevod, mineral, vitaminlarga boy ovqat va mevalar kerak. Shuningdek, o'quvchini aqliy mehnat bilan shug'ullanishi uchun ham to'yib ovqatlanishi lozim. Aks holda o'quvchida tez charchash, darmonsizlik, kasalliklarga qarshi kurashuvchanlikning pasayishini kuzatish mumkin.

4. *Bog'chaga borish.* Bog'chada bola dam oaladi, bolalar bilan o'ynaydi, mashg'ulotlarda qatnashadi. U mashg'ulotlarda natijasidagina Vatani O'zbekiston ekanini bilib oladi, ona tabiatni asrash kerakligini tushunib yetadi, qolaversa ajdodlardan o'tib kelayotgan qadriyatlarga amal qilish kerakligini his etadi. Nutq va tafakkur bolani jamoada o'z o'rnini topishiga yordam beradi. Mashg'ulotlar jarayonidagina o'quvchi do'stlik, mehr-oqibat, saxiylik, sadoqat kabi tuyg'ularni his etadi.

5. *Ochiq havoda sayr.* Bola har kuni 4-5 soat ochiq havoda dam olishi kerak. Bu uning faoligini yanada oshiradi. Ochiq havoda sayr qilish bola organizmini kislorodga to'yintirib, kayfiyatining ko'tarilishiga, quyosh nuridan bahramand bo'lishi va chiniqishiga olib keladi. Mana vaqtda bolalar o'y yumushlarida ota-onalariga ko'maklashsalar ham bo'ladi. Ва бошқалар.

Biz ushbu tahlilda bola faoliyatini masadli tashkil etish omillari haqida fikr bildirdik. Bizga ma'lumki, bizning kuzatishlarimizga ko'ra esa, barcha oilalarda ham ushbu masalaga jiddiy yondoshilmaydi. YA'ni bolaning kun tartibi ota-onalar tomonidan tuzib berilmaydi yoki nazorat qilinmaydi. Afsuski, bu kabi salbiy holat bolaning nafaqat ma'naviy-ruhiy holati, jismoniy rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Bunday bolalar hayotda irodasiz, sabr-bardoshsiz, maqsad sari intilmaydigan, tavakkalchi, dankasa kabi illatlar qurshovida qoladi.

Kun tartibiga rioya qilgan bola esa kelajakda har bir ishini reja asosida bajaradigan, yetti o'lchab bir kesadigan, qeyinchiliklar oldida esankirab qolmaydigan, sabr-bardoshli, irodali, eng muhimi vaqtini bekorchi ishlarga sarflamaydigan kishilar bo'lib yetishadi. Yosh avlod tarbiyasi muhim masala ekan, bu borada ayniqsa, ota-onalar mas'uliyatini oshirish davr talabidir. Agar ota-onalar bu masalada befarq, beparvo bo'lsalar, farzandalari kelajagi xavf ostida qolishi mumkin. Negaki, bugungi bolalar axborotlar asrida yashamoqdalar. Ota-onalar bir

muddat nazoratni qo‘ldan boy bersalar, bolalar har xil oqimlar, yot g‘oyalar yoki umummiy qadriyatlarga zid bo‘lgan ommaviy madaniyat kabi illatlar ta’siriga berilib ketishi mumkin. Bu esa nafaqat oila uchun balki, jamiyat uchun ham fojia hisoblanadi. Shu sababli ota-onalar, mahalla va bog‘cha jamoasi ushbu muamoni hal etishda birgalikda harakat qilmog‘i lozim.

Buning uchun esa quyidagi pedagogik talablarga rioya etish zarur bo‘ladi:

1. Bolaning ilk bog‘chaga qadam qo‘ygan kundan boshlab tarbiyachi kun tartibini ota-onalar bilan birga tuzib olishi;
2. Kun tartibiga rioya qilishda bola va ota-onalar mas’uliyatini oshirib borish;
3. Mazkur masalani ota-onalar yig‘ilishlarida ko‘rib borish va ota-onalarning fikrlarini o‘rganish;
4. Ta’til kunlari uchun alohida kun tartibini yangilash;
5. Ta’til kunlari uchun tuzilgan kun tartibini rejalashtirishda bolalarning istirohat bog‘i, hayvonot bog‘i, muzeylarga sayohatlarini kiritishni aslo unutmaslik kerak bo‘ladi.

Demak, bola faoliyatida kun tartibi muhim ahamiyat kasb etar ekan, ayniqsa, u bolalarni zararli axborotlardan himoyalashning ishonchli va samarali yo‘li ekanligini biz ushbu paragrafda bayon qildik. Bu jarayonda oila bilan hamkorlikni yuqori pog‘onaga ko‘tarish asosiy vazifalardan biri ekanligi ham namoyon bo‘ldi. Zero, har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalashda oila ham, ta’lim muassasasi ham jamiyat oldida birdek javobgar hisoblanadi.

### **2.3. Muammoga doir tajriba-sinov ishlari tahlili**

Televideniye kundalik turmushimizga chuqur kirib borgan ekan, uning bolalar hayoti, dunyoqarashida tutgan o‘rni, vazifasi va salbiy jihatlarini o‘rganish maqsadida tajriba-sinov ishlarini olib bordik. Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida bir muhim jihatni, bugungi yoshlar globallashtirish jarayonida o‘sayotganligi bois ular dunyoqarashi shunga moslashib, tez sur‘atlarda rivojlanib borayotganligini alohida ta’kidlamochimiz. Bugungi yoshlar fan-texnikaning eng

yangi yutuqlaridan samarali foydalana oladilar. Ayniqsa, internet, mobil telefonidan foydalanish ularning sevimli mashg'ulotlaridan biridir. Aslini olganda televidiye ma'lum talablarga javob beradi, ammo uning ham bola dunyoqarashi va jismoniy tarbiyasiga ko'rsatadigan salbiy ta'siri mavjud. Internet, mobil telefoni esa umuman boshqa masala, ya'ni ulardan kelayotgan axborotlarni cheklab, chegaralab bo'lmaydi. Ochig'ini aytganda ushbu vositalar orqali kirib kelayotgan axborotlarning barchasi ham foydali emas.

Umuman, televidiniye va boshqa vositalarning salbiy jihatining birinchi ko'rinishi – bu bolalarni tobelikka olib kelishidir. Mana shu jihat bugungi kun har bir oila, qolaversa butun dunyo hamjamiyatini tashvishga solayotgan masaladir. Tobelikning salbiy oqibati esa bola tomonidan vaqtni unutish, o'z vaqtida ovqatlanmaslik, o'quv mashg'ulotlarini bajarmaslik, mehnat qilishdan qochish, jismoniy va ruhiy zo'riqish, tajanglik, mustaqil fikrlashning shakllanmasligi, xullas bolalarni voqelikdan uzoqlashishga olib keladi.

Bizga ma'lumki, avlodni tarbiyalash ishi avvalo oiladan boshlanadi. Hech bir tarbiya obyekti bolaga oilachalik ta'sir ko'rsata olmaydi. Bola barcha insoniy fazilatlarni oiladan o'rganadi. Shu bois qadimdan ham oilada farzand tarbiyasiga jiddiy yondoshilgan. Negaki farzand tarbiyasiga beparvo bo'lish kelajakda katta bir fojiani keltirib chiqarishi mumkinligini ota-bobolarimiz yaxshi bilishgan.

Oilada to'g'ri yulga qo'yilmagan bolalarkun tartibi hamda har xil omillarning ta'siri natijasida bugungi kunda 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalartarbiyasiga turli salbiy og'ishlar ko'zga tashlanmoqda.

Ayrim ota-onalar oila a'zolarining madaniy dam olishi uchun audio, video, radio, televizor, magnitofon kabi zamonaviy texnika vositalarini xarid qiladigan bo'lsalar, ota-onalar farzandlarini xursand qilish uchun tug'ilgan kunida turli kompyuter o'yinlari majmuasini, shovqin– suronli diskli magnitafonlar va shu kabilarni sovg'a qilishni odat qilib olishmoqda. Bunday holat bolalaraqliiy tafakkur doirasini boyitish o'rniga idrok ko'lamini tor doirasida bo'lishiga olib keladi. Har vandanay vositadan o'rinli foydalanilsagina u yaxshi samara beradi.

Muammoni atroflicha o'rganish maqsadida tajriba-sinov ishlarini olib bordik.



Dastlabki, tajriba-sinov ota-onalar bilan olib borildi. Tadqiqotimizda 18 nafar ota – onalar qatnashib so‘rovnomalarga o‘z munosabatlarini bildirdilar.

Anketa savollariga berilgan javoblar o‘rganib chiqilib, tahlil qilish natijasida quyidagilar aniqlandi.

1. Farzandingiz bo‘sh vaqtida nima bilan band bo‘ladi?

Badiiy kitob o‘qiydi – 3 nafar

O‘rtoqlari bilan ko‘chada o‘ynaydi – 6 nafar

Televizor ko‘radi – 9 nafar

2. Farzandingizni har kuni beriladigan teleseriallarni ko‘rishiga qarshilik qilasizmi?

Ha – 6 nafar

Yo‘q – 5 nafar

Ba’zida – 7 nafar

3. Farzandingiz kech soat nechagacha televizor ko‘rishadi?

20 gacha – 9 nafar

22-23 gacha – 6 nafar

Vaqtini chegaralamaganmiz – 3 nafar

4. Farzandingiz dunyoqarashini shakllantirishda televizorning o‘rnini qanday baholaysiz?

Yuqori – 8 nafar

Aksincha – 3 nafar

O‘rtacha - 7 nafar

5. Farzandingiz qaysi telekanalni ko‘proq tomosha qiladi?

“O‘zbekiston” – 0

“Yoshlar” - 6 nafar

“Bolajon” – 12 nafar

6. Farzandingiz bilan televizorda berilgan ko‘rsatuv yoki filmni muhokama qilganmisiz?

Ha – 6 nafar

Yo‘q – 12 nafar

7. Farzandingizga televizor ko‘rishni ta’qiqlab qo‘yganmisiz, nima sababdan?

Ha, ko‘p hollarda darsini qilsin diyman – 12 nafar

Ha, yoshiga mos emas kinolarni ko‘rgani uchun – 4 nafar

Yo‘q, ta’qiqlamaganman – 1 nafar

8. Bolalarning televizor ko‘rishlarini ota–onalar tomonidan nazorat qilib borilishi kerak . Bu haqida fikringiz?

Albatta, nazorat qilib borish kerak – 18 nafar

Bolani cheklash shart emas - 0

Bilmadim - 0

9. Hozirda bolalaringiz asosan qanday mashg‘ulot bilan ko‘p vaqtini o‘tkazmoqda?

Dars, qo‘shimcha kurslar mashg‘ulotlar bilan – 6 nafar

Asosan televizor ko‘rish bilan – 8 nafar

Sport bilan shug‘ullanishi orqali – 4 nafar

10. Siz o‘z oilangizni televideniyesiz tasavvur eta olasizmi?

Ha – 2 nafar

Yo‘q – 16 nafar

Bilmadim – 0

Televidenining bolalardunyoqarashiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha olib borgan so‘rovnomada qatnashgan ayrim ota – onalarning fikr mulohozalari quyidagicha bo‘ldi:

“Bugungi kun televideniyesining bolalardunyoqarashiga ta’siri qanday?” savoliga **T.Saidova** ? shunday deydi: “Bugun televizorsiz hayotimizni tasavvur qila olmaymiz. Farzandlarimiz televidiniyeddan juda ko‘p axborotlarni olishadi, analiz va sintez qilishadi. Raqs va qo‘shiqlarni tinglaydi va nutqi boyiydi. Ayniqsa, rangli va tiniq televizorlar bolalarni tezda jalb etadi, u orqali bolalarning estetik dunysi boyib boraveradi.”.

**Raxmatova Nigora:** “Boshqa vositalar ya’ni internet, telefondan ko‘ra televidiniyening bolalar dunyoqarashiga ko‘rsatadigan ta’siri ijobiy deb o‘ylayman. Ayniqsa, hozirgi kunda “Bolajon” teledasturida farzandlarimiz uchun

nihoyatda foydali bo'lgan ruknlar berib borilayapti, ba'zan ularni biz ham maroq bilan tomosha qilamiz. Ammo bolalarimiz televizor oldida o'tirib vaqt o'tganini bilmay qolayapti va natijada darslarini bajarishga ulgurishmayapti. Men buni nazorat qilishga harakat qilaman. Ammo ishdan bo'lgan vaqtimchi, bu vaqtda nazoratni amalga oshira olmayapman. O'z navbatida farzandlarimni televizor ko'rishdan mahrum qilishni ham hohlamayman. Negaki, u tufayli bolalarim chet tilini o'rganayapti, qiziqarli o'yinlarni tomosha qilib, dam olayapti. Ba'zan ushbu muammo o'zimni ham qiynaydi”.

**Qosimova Gulnoza:** “Televizor ko'rma desak, farzandlarimiz nima bilan band bo'lishadi. Ko'chada yomon bolalarga qo'shilib ketgandan ko'ra, albatta televizor ko'rgani ma'qul. Men shunday deb o'ylayman. “Bolajon”ni qizim bilan birgalikda o'zim ham ko'raman. Ayniqsa, ingliz tilidagi bir necha so'zlarni ham o'rganib oldim. Faqatgina ayrim multfilmlarga e'tirozim bor. Ularning kinolardan farqi qolmadi. Hozirdan yosh bolaga sevgi- muhabbatni o'rgatishimiz kerakmikan, deb o'ylab qolaman”.

**Jabborova Dildora:** “Hozirga bolalarga televizor ko'rishni ta'qiqlashning o'zi axmoqlik meningcha. Negaki, bolalarga televizor ko'rma desak, ko'chadagi internet kafelarga yugurishadi. Undan ko'ra televizor ko'rishsin, faqat meyordan oshmagan holda. Men ko'proq bolalarimni uy yumushlari bilan band qilaman. Dars tayyorlashga ham ulgurishadi. Ammo achinarli bir holatni alohida ta'kidlashimiz kerak, bolalarimiz badiiy kitob o'qimay qo'yishdi. Bu o'z navbatida ularning dunyoqarashiga salbiy ta'sir ko'rsatadi ”.

Bolalarbilan o'tkazilgan test sinovlarida Qarshi shahridagi 39–umumiy o'rta ta'lim maktabning 62 nafar maktabgacha yoshdagi bolalar ishtirok etdilar. O'tkazilgan test sinovlari bizga televideniyaning bolalarhayotiga qay darajada o'rni borligini aniqlash va aniq xulosalar chiqarish imkonini berdi. Jumladan test savollariga quyidagicha javob olindi :

1. **“Siz quyidagilardan qaysi birini ko'proq yoqtirasiz?” degan savolga quyidagicha javob olindi :**

Uyga vazifani bajarishni – 8 nafar

Kitob o‘qishni – 9 nafar

Televizor ko‘rishni - 25 nafar

O‘yin o‘ynashni - 20

**2. “Siz bo‘sh vaqtingizda asosan nima bilan mashg‘ul bo‘lasiz?” degan savolga javoblar quyidagicha bo‘ldi:**

Kitob o‘qiyman – 8 nafar

Uy yumushlariga qarashaman - 12 nafar

Televizor ko‘raman - 20 nafar

O‘rtoqlarim bilan o‘yin o‘ynayman- 22

**3. “Siz qaysi telekanalni ko‘proq tomosha qilasiz?”**

O‘zbekiston – 3 nafar

Yoshlar – 9 nafar

Bolajon- 39 nafar

Navo- 8 nafar

Sport – 3 nafar

**4. Televizorda nimalarni ko‘proq ko‘rasiz?” degan savolarning javoblari:**

Kinolarni – 15 nafar

Multfilmlarni – 23 nafar

O‘yinlarni – 8 nafar

Ingliz tili saboqlarini – 16 nafar

**5. “Ota – onangiz sizni televizor ko‘rishingizni nazorat qiladimi?” degan savolga quyidagicha javob olindi :**

Doimo nazorat qiladi – 32 nafar

Ba’zida nazorat qiladi - 23 nafar

Yo‘q, nazorat qilmaydilar –7 nafar

**6. “Siz ko‘proq o‘zingizni qiziqtirgan ma’lumotlarni qanday bilib olasiz?” savolining javoblari quyidagicha :**

Darslar orqali bilib olaman – 27 nafar

Televizordan bilib olaman – 22 nafar

Ota- onamdan so‘rab bilib olaman - 13 nafar

### **7. “Siz qanday kinolarni sevib tomosha qilasiz?”**

Fantastik kinolarni - 32

Urush-janjalli kinolarni – 10 nafar

Bolalarga oid kinolarni - 20 nafar

Olib borilgan tadqiqot natijalariga asoslanib shuni ta’kidlashimiz mumkinki, bugungi kunda bolalardunyoqarashini shakllantirishda televideniyeining o‘rni kattadir. Ammo bolalarning haddan ziyod televideniyeiga bog‘lanib qolishi salbiy holatdir. Bunga asosiy sabab oiladagi ota-onalarning farzandlariga e’tiborsizligi, unchalik ahamiyatga ega masala emas, deb hisoblayotganliklari va bola kun tartibini nazorat qilmasliklaridir.

Tajriba-sinov ishlari avvalida maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashi shakllanganligi darajasini aniqlash uchun so‘rovlar o‘tkazdik. Tanlangan savollar bolalarning axloqi, atrofdagi tabiatga munosabati, milliy qadriyatlarga munosabatini aniqlashga qaratildi.

Har bir savolga 3 ta va undan ortiq misollar sanab bera olsa – 3 ball, 2 ta misol sanab bera olsa - 2 ball, faqat 1 ta misol keltira olsa – 1 ball va umuman sanab bera olmasa – 0 ball qo‘yildi. Shunga ko‘ra 24 baldan-30 balgacha – yuqori daraja, 15 baldan - 21 balgacha – o‘rta daraja va 15 baldan past bo‘lsa – quyi daraja qilib belgilandi. Natijalar quyidagicha bo‘ldi:

#### **2.2.1-жадвал**

#### **Tajriba avvalida bolalarlar dunyoqarashining shakllanganlik darajasi**

Guruhlar	Bolalarlarning javoblari					
	Yuqori daraja		O‘rta daraja		Quyi daraja	
	naz.guruh	taj.guruh	naz.guruh	taj.guruh	naz.guruh	taj.guruh
1- guruh bolalarlari	15	16	19	20	28	26

Natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, faqatgina nazariy bilimlar berish bilan bolalarlar dunyoqarashini boyitish sira mumkin emas. Albatta ularni amaliyot bilan bog'lash muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish va televideniyeining bola dunyoqarashiga ijobiy ta'sirini oshirish bolaning televideniyeiga to'g'ri muosabatini shakllantirishning samarali yo'llarini aniqlashni taqozo etadi.

## XULOSALAR

### **Olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida quyidagi xulosalarga keldik:**

1. Yosh avlod dunyoqarashini yuksaltirish, ularning dunyoqarashi, estetik qarashlari va siyosiy ongini shakllantirishda ommaviy axborot vositalaridan samarali foydalanish hamda ushbu masalani maqsadga muvofiq yo'naltirish nafaqat jamiyat balki, boshlang'ich ta'lim oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

2. Xalqimizning bizgacha yetib kelgan ajoyib qadriyatlari: urf-odatlar, o'g'itlari, an'analari, Ona Vatanga muhabbat, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlari bor. Ushbu fazilatlarni targ'ib qilishda ommaviy axborot vositalarining, xususan televidiniyening o'ziga xos o'rni borligi olib borgan tadqiqotlarimizda namoyon bo'ldi.

3. Bolaning asosiy vaqti oila davrasida o'tar ekan, ota-onalar farzandlarining dunyoqarashini shakllantirishda televidiniyedan maqsadli foydalanishni yo'lga qo'yishlari va bunga erishish yo'llaridan samarali foydalanishlari maqsadga muvofiq.

4. Muammoning mavjud holatini o'rganish shundan dalolat beradiki, bugungi kun bolalari dunyoqarashi va qiziqishlari jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Ularning dunyoni bilishga bo'lgan qiziqishlari televidiniyega orqali qondirib boriladi, buni bolalarlar bilan o'tkazgan so'rovlarni ham tasdiqladi.

4. Televideniye orqali namoyish etila digan bolalardasturlari va ma'naviy-ma'rifiy dasturlardan boshlang'ich ta'lim jarayonida samarali foydalanish bolalarlar dunyoqarashini boyitishga, tasavvurlarini va dunyoqarashini kengaytirishga yordam beradi.

5. Maktabgacha yoshdagi bolalar bo'sh vaqtlarida ta'lim jarayonida televideniye materallaridan to'g'ri foydalanishga o'rgatish uchun boshlang'ich guruh o'qituvchilari va bolalarlar ota-onalari bilan ayni muammoga bag'ishlangan pedagogik o'qishlar tashkil etish lozim.

6. Ota-onalar va o'qituvchilar bolaning kun tartibini to'g'ri tashkil etishlari va shu bilan bolalarning televideniyeiga bog'lanib qolishining oldini olishi mumkin.
7. Ota-onalar bolalarni har daqiqadan unumli foydalanishga o'rgatadigan bo'lsalar, ularning dam olishlari uchun ham, bilim olishlari uchun ham vaqt yetarli bo'ladi. Buning uchun ota-onalarni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish lozim.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.–Toshkent: O‘zbekiston, 1992.- 48 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. –Toshkent: O‘zbekiston, 1998. –20-29 b.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998.- 31-61 b.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. - Toshkent: O‘zbekiston, 1992.- 178b.
6. Inog‘omova S. Mantiqiy fikrlash // Boshlang‘ich ta’lim. – Toshkent, 2000. - №2. – 20-21- betlar.
7. Karimova V. Psixologiya. –Toshkent: Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. -203 b.
8. Kalmikov A.A., Koxanova L.A. Internet-jurnalistika. M.: YUNITI–DANA, 2005. (“Ekonomicheskoye obozreniye”, 1998, yanvar, 74 str.
9. Kochetov A., Versinskaya N. Rabota s trudnimi detmi.Moskva.1999 g.
10. Mavlonova R., To‘rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. -Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 510 b.
11. Manoylo A.V., Petrenko A.I., Frolov D.B. Gosudarstvennaya informatsionnaya politika v usloviyax informatsionno-psixologicheskoy voyni. 2-izd. M.: Goryachaya liniya – Telekom. 2006, 203 b.
12. Maraximov A., Raxmonqulova S. Internet va undan foydalanish asoslari. – Toshkent: Asia Spai, 2001. – 176 b.
13. Nishonova S. Sharq uyg‘onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi: Ped. fan. dok. ... dis. –Toshkent, 1998. –288 b.
14. Ochilov M. Muallim - qalb me’mori. –Toshkent: O‘qituvchi, 2001. – 430 b.

15. Paxrutdinov Sh. Taraqqiyotga tahdid: nazariya va amaliyot. T.: “Akademiya”, 2006. 73 b.
16. Pedagogika. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari uchun darslik/ A.K.Munavvarov tahriri ostida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 200 b.
17. Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi O.Hasanboyeva. – Toshkent: O‘qituvchi, 1993. – 206 b.
18. Povaritsina V. Vospitatelnaya rabota s trudnimi uchashimisya. Chelyabinsk. 1984.
19. Raxmonqulova N. Ta’lim va tarbiyasida qiyinchiliklar bo‘lagh bolalar muammolari. Toshkent: Fan. – 2006.121 b.
20. To‘laganova G. Tarbiyasi qiyin o‘smirlar. Toshkent: 2008.
21. Choriyev A. Inson falsafasi. Ikkinchi kitob. Mustaqil shaxs. – Toshkent: Chinor ENK, 2002. - 271 b.
22. Ergashev Q. Yoshlarning ma’naviy tarbiyasi. Toshkent: Ma’naviyat. – 1999, 38 b.
23. Erkayev A.Ma’naviyat –millat nishoni.T. Ma’naviyat, 1997.174 b.
24. Yusupov E. Yoshlarning ma’naviy kamoloti. – Toshkent: O‘zbekiston, 1995. – 32 b.
25. Yusupov E., Ismoilov F. Inson barkamolligi. – Toshkent: O‘zbekiston, 1990. – 240 bet.
26. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi. Ikki jildlik. (–Tuzuvchi mualliflar: K.Hoshimov, S.Ochil).-Toshkent: O‘qituvchi, 1995. - 464 b.
27. G‘oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. –Toshkent: O‘qituvchi, 1990.–180 b.
28. G‘afurov Z., Toshev S. Ma’naviyat saboqlari. Qarshi: Nasaf. – 1999.

### **Интернет материаллари**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz).
2. [www.press-service.uz](http://www.press-service.uz).
3. [www.bilim.uz](http://www.bilim.uz).
4. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



# ILOVALAR

**Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo'ljallangan test savollari**

**Siz quyidagilardan qaysi birini ko'proq yoqtirasiz?**

A) Bog'chaga borishni

B) O'yin o'ynashni

V) Televizor ko'rishni

2. Siz bo'sh vaqtingizda asosan nima bilan mashg'ul bo'lasiz?

A) O'ynaman

B) Uy yumushlariga qarashaman

V) Televizor ko'rish bilan

3. Televizor ko'rishni yoqtirasizmi?

A) Ha

B) Yo'q

V) Ba'zida

4. Siz asosan televizorda nimalarni ko'proq ko'rasiz?

A) Kino va seriallarni

B) Multfilmlarni

V) Hujjatli filmlarni

5. Ota-onangiz televizor ko'rishingizni tergab nazorat qilishadimi?

A) Albatta nazorat qiladi

B) Ba'zida nazorat qiladi

V) Yo'q, nazorat qilmaydilar

6. Siz kechgi soat nechagacha televizor ko'rasiz?

A) Xohlaganimcha ko'raman

B) Soat kechgi 20 gacha ko'raman

V) 23 gacha ko'raman

7. Sizning ota-onangiz tungi teleseriallarni ko'rishingizni ta'qiqlanganmi?

A) Ha

B) Yo'q

V) Ayrim hollarda

7. Siz ko‘proq o‘zingizni qiziqtirgan ma’lumotlarni qanday bilib olasiz?

A) Kitob o‘qib bilim olaman

B) Televizordan ko‘p narsani bilib olaman

V) Ota- onamdan yoki o‘rtoqlarimdan so‘rab bilib olaman

8. Siz televizorni nima maqsadda tomosha qilasiz?

A) Kino va multfilmga qiziqqanim uchun

B) Zerikkanimdan

V) Bilim olish uchun

9. Siz qanday kinolarni sevib tomosha qilasiz?

A) Fantastik kinolarni

B) Urish – janjalli kinolarni

V) Bolalarhayoti aks etgan kinolarni

10. Hozirgi bo‘layotgan teleseriallardan misol uchun “Kumush” kabi seriallarni doimo ko‘rib borayapsizmi?

A) Ha

B) Yo‘q

### Ota-onalar uchun anketa savollari

Hurmatli ota-ona! Sizdan quyidagi anketa savolariga javob berishingizni so'raymiz. Bo'sh o'rinlarga o'z fikringizni yozishingiz mumkin. Shuni ma'lum qilamizki, Sizning javoblaringiz faqat ilmiy tadqiqot maqsadida qo'llaniladi.

Sizning farzandingiz asosan bo'sh vaqtida nima bilan band bo'ladi?

- A) Badiiy ertak, kitob o'qiydi
- B) Uyga berilgan topshiriqlarni bajaradi
- V) Televizor ko'radi

2. Farzandingizni teleseriallarni ko'rishiga qarshilik qilasizmi?

- A) Ha
- B) Yo'q
- V) Ba'zzida

3. Bolalaringiz kech soat nechagacha televizor ko'rishadi?

4. Farzandingiz biror nojo'ya ish qilib qo'ysa jazo sifatida televizor ko'rishdan mahrum qilib qo'ygan vaqtlaringiz ham bo'ladimi?

- A) Ha
- B) Yo'q
- V) Ba'zida

5. Bolalaringizning ko'p televizor ko'rishi o'qishiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?

A) Farzandimning ta'lim olishiga televideniyaning xech qanday ta'sirini sezmaganman

B) Farzandimning ta'lim faoliyatiga ijobiy ta'siridan salbiy ta'siri ko'proq

6. Farzandingizning badiiy kitoblar o'qishi bilan qiziqib turasizmi?

- A) Ha
- B) Yo'q

7. Yevropa kinolarini farzandlaringiz oldida ko'rasizmi?

- A) Ha

B) Yo‘q

V) Ba’zida

8. Biroz dam olishni ko‘zlab bolalaringizni televizor ko‘rishni buyurgan yoki televizor qo‘yib bergan vaqtlaringiz bo‘lganmi?

A) Ha, ko‘p hollarda

B) Yo‘q

V) Ba’zida

9. Bolalarning televizor ko‘rishlarini ota–onalar tomonidan nazorat qilib borilishi kerak. Bu haqida fikringiz ?

A) Albatta nazorat qilib borish kerak

B) Bolani cheklash shart emas

V) Bilmadim

10. Hozirda 7 yoshdan 11 yoshgacha bo‘lgan bolalaringiz asosan nima bilan ko‘p vaqtini o‘tkazmoqda?

A) Dars, qo‘shimcha kurslar mashg‘ulotlar bilan

B) Asosan televizor ko‘rish bilan

V) Sport bilan shug‘ullanishi orqali

11. Siz o‘z oilangizni televideniyesiz tasavvur eta olasizmi?

A) Ha

B) Yo‘q

V) Bilmadim

12. Sizning farzandingiz televizor ko‘rishni yaxshi ko‘radimi?

A) Ha, albatta

B) Yo‘q

V) Bilmadim

**Javoblaringiz uchun rahmat!**



### Tarbiyachilar uchun anketa savollari

Hurmatli tarbiyachi! Sizdan quyidagi anketa savolariga javob berishingizni soʻraymiz. Boʻsh oʻrinlarga oʻz fikringizni yozishingiz mumkin. Shuni maʼlum qilamizki, Sizning javoblaringiz faqat ilmiy tadqiqot maqsadida qoʻllaniladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar OAVning qaysi turiga koʻproq qiziqadilar?

- A) Radio
- B) Televideniye
- V) Matbuot
- G) Internet

2 Maktabgacha yoshdagi bolalar dunyoqarashiga televideniyaning taʼsiri, sizningcha, qanday?

- A) Ijobiy
- B) Salbiy
- V) Taʼsir etmaydi

3. Sizningcha, bolalarga bir kunda necha soat televizor koʻrishga ruxsat berish mumkin?

- A) 1-2 soat davomida
- B) 3-4 soat davomida
- V) Chegaralash kerak emas
- G) Umuman ruxsat bermaslik kerak

4. Televideniye dasturlaridan bolaning boʻsh maqtini toʻgʻri tashkil etishda foydalanish muminmi?

- A) Ha
- B) Yoʻq
- V) Har doim emas.

5. Hozirgi kunda “Oʻzbekiston” va “Yoshlar” telekanallarining bolalar uchun moʻljallangan dasturlari talabga javob beradimi?

A) Ha

B) Yo‘q

V) Bilmadim

6. Televideniye dasturlaridan ta’lim jarayonida foydalanish mumkinmi?

A) Ha

B) Yo‘q

V) Bilmadim

7. Boshlang‘ich guruh qaysi darslarida televideniye orqali berilayotgan ma’lumotlardan foydalanish mumkin?

8. Televideniye uchun odatiy holga aylanib qolgan reklamalarga munosabatingiz?

A) Ijobiy. To‘g‘ri foydalana bilish kerak.

B) Umuman kerak emas

V) Bolalarga salbiy ta’sir etadi

9. Bolalarlaringizga televideniye ko‘rishni ta’qiqlaysizmi?

A) Ha

B) Yo‘q, aralashmayman.

V) Ba’zan

10. Sizningcha, televideniye kichik maktab yoshidagi bolalardunyoqarashiga ta’sirini oshirish uchun nimalar qilish mumkin? Takliflaringiz.

**Javoblaringiz uchun rahmat!**